

# YANG CONFERENCE.UZ 2023

## O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



Карл Бенц  
1885 год  
Германия

Мощность:  
0,9 л.с.

### BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:  
бензин

Масса:  
265 кг


Двигатель:  
0,954 L



Тип кузова:  
мотоколяска  
без дверей  
Число мест - 2

Компоновка:  
переднемоторная,  
заднеприводная

Колёсная формула:  
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота: 1400 мм

Коля задняя: 1190 мм

Колёсная база: 1450 мм

Длина: 2400 мм



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



MART  
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
10-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-10**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 47 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР

<b>1. M.A Azizov</b> O‘QUVCHILARDA SPORT TURIZMI TADBIRLRI ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-BO‘LISHITLARI .....	7
<b>2. Azizova Dilnoza Imomnazarovna</b> O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	11
<b>3. Eshchanova Xolida Xudayarovna</b> YOSHLAR MA‘NAVYIY-AXLOQIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDA AJDODLARIMIZ MA‘NAVYIY MEROSINING O‘RNI .....	13
<b>4. Fayziyeva Nargiza Abduraximovna</b> DARSLARIDA MUOMMOLI TA‘LIM USULIDAN FOYDALANISH .....	15
<b>5. Igamova Malika Jurayevna</b> ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH .....	17
<b>6. Olimov Saydullo Soxobjonovich</b> TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	19
<b>7. Saydazimova Durdona Xabibullayevna</b> FOSTERING INFORMATION CULTURE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS.....	21
<b>8. К.Я.Бахронова</b> ШИФОКОР БОР ЭКАН, ДАРД ЧЕКИНИБ, БЕМОР СОҶАЯДИ.....	24
<b>9. Тўраханов Умматали Давлатович</b> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ШАРТЛАРИ ВА УНГА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР.....	27
<b>10. Abdullayeva S.N</b> EKSPRESSIV ALALIYALI BOLALARDAGI NUTQIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI .....	31
<b>11. Baboyev A‘lomirza To‘lamirzayevich</b> “CHAQIRIQQACHA HARBIY TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI”.....	33
<b>12. Jo‘rayeva Shahzodaxon Mahamadjonovna</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING O‘RNI.....	35
<b>13. Jumanova Sabrina Vaydullo qizi</b> THE ROLE OF MOTIVATION IN EFL.....	38
<b>14. Matluba Turobova Raxmatullayevna</b> INTERNET LUG‘ATCHILIGINING SHAKLLANISHI.....	40
<b>15. Salayeva Navbaxor, Xudayberganova Sharofat</b> O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ba‘zi jihatları .....	42
<b>16. Tashimov Nurlan Erpolatovich</b> CHIZMA GEOMETRIYA FANIDA TALABALR MUSTAQIL TA‘LIMI MAZMUNI VA TASHKIL ETISH USULLARI.....	45



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### О‘QUVCHILARDA SPORT TURIZMI TADBIRLARI ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-BO‘LISHITLARI

**M.A Azizov.**

NamDu tadqiqotchisi.

Email: azizovmaruf40@gmail.com.

Tel: +998999771112

**ANNOTATSIYA:** Respublikamizda turizm, sport va moddiy, madaniy meros, ekologiya sohalari uchun kadrlar tayyorlash hamda ushbu sohalarda ilm-fanni rivojlantirishga ko‘maklashishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, sport turizmini rivojlantirish asosida ekomuhitni sog‘lomlashtirishni taqozo etadi. Mazkur maqola mamlakatimizda o‘quvchilarning sport turizmi tadbirlariga qiziqishlarini ortishi bilan birgalikda ekologig madaniyatini rivojlanishiga xizmat qiladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Sport turizmi tadbirlari, ekologik madaniyat, ekoaxloq, muvozanat mashqlari, sog‘lom turmush tarsi.

Olimlar tomonidan sport turizmlarga va yurishlarning o‘ziga xosligi, uning jamiyat hayoti va alohida shaxs hayotida, insonning sog‘lom turmush tarzi madaniyatida tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy - amaliy jihatdan o‘rganib shiqilgan. Sport turizmlari va yurish xususiyatlari va xilma-xilligi masalalari ustida izlanish olib borgan olimlar: R.Qosimov turizm, yurish qadri, zarurligi, uning ijtimoiy xulqini shakllantirish, kishining jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilab olishdagi, muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarini maromiga keltira olish ahamiyatini ta’kidlaydilar.

Bizning fikrimizcha, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarining mazmunida quyidagi usullar ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq. Jumladan:

- o‘quvchilarda sport turizmlari jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni ta’lim mazmuniga singdirish;
- o‘quv fanlari mazmunidagi ekologik bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga imkoniyat beruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish (nazariya yoki muhokamadan amaliyotga o‘tish);
- o‘quv dasturlaridagi mavzular mazmunini Respublikadagi chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish, chiqindilarning hosil bo‘lishi, tabiatga keltiradigan zarari va ularni bartaraf etish omillari kabi masalalar bilan boyitish;
- matematika, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmunini tejamkorlikka oid aniq iqtisodiy-ekologik masalalar bilan boyitish;
- o‘quvchining o‘zini-o‘zi va o‘zgalar faoliyati natijalarini oldindan ko‘ra olish hamda baholashga o‘rgatish maqsadida geografiya, matematika, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmuniga ekologik baholash va ekologik bashoratlash (prognoz)ga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni o‘quvchilarning yoshiga mos tarzda quyi sinflardan (7-8-9) boshlab kiritib borish;
- umumiy o‘rta ta’limda ekologik bilimlar o‘quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar kesimida tashkil etilishi;
- bilim berish “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy hamda amaliy bilimlar uyg‘unligi, o‘quvchilarda ekologik madaniyat va jismoniy tarbiyani bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlaydigan maqsadli tizimga aylaniishi kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida sport turizmlari jarayonida ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni hamda ekologik tarbiyani shakllantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalar mavjud o‘quv fanlari mazmunida uzviylik asosida berilishi va bir butun kompleks (o‘zaro bir-birini takrorlamagan) ni ifodalashi lozim.



Umumiy oʻrta taʼlim tizimida sport turizmlari jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. boshlangʻich taʼlim (I—IV sinflar);
2. umumiy oʻrta taʼlim (I—XI sinflar).

1. Boshlangʻich taʼlimda sport turizmlari jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim va koʻnikma asoslariga eʼtibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

2. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar oʻquv fanlari tarkibida qoʻshimcha ravishda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza boʻlish sohasiga oid quyidagi bilim, koʻnikma va malakalarni egallashlari shart:

a) tabiatni muhofaza boʻlish obyektlari (yer, yerosti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda atmosfera havosi)ni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash;

b) suvni tejash va asrash zarurligi;

v) atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza boʻlish zarurligi;

g) yer resurslari, turpoq va togʻ jinslarini, foydali qazilmalar toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlish;

d) Oʻzbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ni, unga kiritilgan eng noyob hayvonot va oʻsimlik turlari;

e) chiqindilar, maishiy chiqindilarning xususiyatini, ularni joylashtirish va faqatgina belgilangan joylarga tashlanishi;

j) Oʻzbekistonning goʻzal va takrorlanmas tabiati haqida;

z) oʻzi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda oʻzining ish

tiroki hamda Oʻzbekistondagi yirik qoʻriqxonalar, tabiati haqida maʼlumotga ega boʻlishi va tabiatning inson organizmga taʼsiri haqidagi maʼlumotlarni olishi maqsadga muvofiqdir.

Sport turizmi kattalar hayotida muayyan oʻrin tutarkan, u oʻquvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Respublikamizning afsonaviy turistik viloyatlariga, togʻ va vodiy, oʻrmonlarga turizm, daryo qirgʻoqlari va koʻl boʻyiga turizmlar bugungi kunda inson salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Sportning mazkur turlari oʻquvchilarda oʻzligining namoyon boʻlishi, uning takomillaShuviga xizmat qiluvchi usuldur. Ishlab chiqiladigan sport turizm va yurishlar nazariyasi pedagogika fani taraqqiyoti uchun ham ahamiyatlidir. Shu jihatdan olganda 7-sinfning jismoniy tarbiya darslarida oʻquvchilar didaktik topshiriqlarni bajarganlarida sport turizm, yurishlar texnikasini mukammallashtirish bilan birga, turizm, yurishlarni sujetlar orqali axloqiy fazilatlarini oʻzlarida kamol toptirishadi.

8-sinflarda turizm, yurishlar, asosan, darsning yakunlovchi qismida oʻtkazish tavsiya etiladi. Chunki turizm va yurishlar darslarni integratsiyalaydi. Sport turizm va yurishlarni bajarishga alohida eʼtibor berish lozim. Bu yoshdagi oʻquvchilar bilan asosan oddiy va oʻrtacha murakkablikdagi turizm va yurishlar oʻtkaziladi. Agar oʻquvchilar yetarli darajada tayyorlangan boʻlsa, yanada murakkabroq, yaʼni jamoalarga boʻlinib sport turizm va yurishlar tashkil etiladi va oʻtkaziladi.

9-sinfda esa oʻquvchilarda bu mashqlar orqali axloqiy fazilatlarini singdirishga zamin yaratilib, ularda masʼuliyat hissi paydo qilinadi. Bu hol sport turizmlar va yurishlarda ishtirokchilarning masʼuliyatini orttiradi.

Sport turizmlar va yurishlar qiziqarli, taʼsirchan jamoali boʻlganligi uchun yetarli darajada chaqqonlik, farosatlilik va kuchli, jismoniy tayorgarlikni talab qiladi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Jismoniy tarbiya darslari koʻpincha turli sport turizmlar va yurishlardan iborat boʻladi.

Oʻqituvchi sport turizmlar va yurishlarni oʻtkazishda 7-9 sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlari ularning organizmi tezroq oʻsishi bilan ifodalanishini unutmasligi va shuning uchun darslarda oʻtkaziladigan turizm va yurishlar asta-sekin murakkablashtirilgan va maqsadga muvofiqlashtirilgan holda berishi lozim.

Sport turizm va yurishlar jarayonida oʻquvchilar haddan tashqari ogʻir jismoniy harakat qilmasligi va oʻqituvchi ularning har biriga tegishlicha munosabatda boʻlishi zarur.

Oʻquvchilarda foydalaniladigan sport turizmlar hajmi taʼlim-tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqadi. Mazkur sinflarda oʻtkaziladigan sport turizmlar tashkiliy jihatdan ham, ularni oʻtkazish jihatdan ham sermazmun boʻladi. Darsning asosiy qismida oʻquvchilarni birorta murakkab yoʻnalishdagi ekoobyektni oʻrganishga tayyorlash uchun darsning tayyorgarlik qismiga baʼzi mashqlarni kiritish mumkin (qushlar, gullarga eʼtibor qaratish).

Ishlab chiqilgan metodikaga, asosan, sport turizmdan foydalaniladigan darslar chorak oxirida, tahlil oldidan tekshirish normativlariga baho qoʻyilganidan keyin oʻtkaziladi. Darsning puxtaroq





bo‘liShiga erishish, shuningdek, orttirilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash va o‘quvchilarga beriladigan topShiriqni oshirish maqsadida sport turizm va yurishlarning asosiy qismi so‘ngida foydalanish mumkin.

O‘quv dasturlarining talablari 7-sinf o‘quvchilari oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Bunday bo‘lishda sport turizmlarning jismoniy tarbiya darslarida va jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘tkaziladigan boshqa mashg‘ulotlarda yetakchi o‘rin olishi tabiiydir. Garchi sport turizmlar mashg‘ulotlarga kiritilsa ham, bunda sportning har xil turlari bo‘yicha orttirilgan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash nazarda tutiladi. Demak, sport turizmlar o‘tkazish jarayonida uni bajarilishini alohida e‘tibor bilan kuzatish lozim. O‘z-o‘zidan ayonki, darsga kiritiladigan sport turizmlar u yoki bu elementlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan mashqlardan iborat bo‘lishi kerak.

Mashg‘ulotning yakunlovchi qismida o‘tkaziladigan turizm va yurishlarning vazifasi yaxshi dam olish va kayfiyatni yaxshilash uchun muskullarga zo‘r berishni kamaytirish, nafas olish va qon aylanishini birmuncha tinchlantirishdan iboratdir. Tog‘ yonbag‘irlari, o‘rmon, daryo qirg‘oqlari, ko‘l bo‘ylariga o‘tkazilgan turizmlar darsning yakunlovchi qismidagi vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi.

Yaxshi tanlangan sport turizmlar ta‘lim - tarbiya muvaffaqiyatining muhim shartidir. Bularni o‘tkazishga tayyorlanishda qatnashuvchilarning tarkibi, yosh xususiyatlari, shuningdek, jismoniy tayyorgarliklarini hisobga olib, mashg‘ulotning asosiy vazifalarini belgilashi zarur.

O‘qituvchi sport turizmlarini tanlashda mashg‘ulot qanday shaklda o‘tkazilishini aniq bilishi kerak. Agar sport turizm qishda o‘tkaziladigan bo‘lsa, o‘quvchilarni faollashtiradigan va jismoniy topshiriqni bir tekisda taqsimlaydigan serharakatroq yo‘nalish tanlanishi kerak. Sport turizm bahorda o‘tkazilsa, unda mavsumga qarab ish tutiladi. Eng muhimi mavsumiy yurishlarda antropogen va tabiiy ekofaktlarga amal bo‘lish zarur.

Sport turizm va yurishlarni o‘tkazishda quyidagi pedagogik shart-bo‘lishitlarga e‘tiborni qaratish lozim:

- sport turizmga chiqadiganlarning tarkibini aniqlash;
- sport turizmi ishtirokchilarning ota-onalari bilan suhbatlashish;
- kerakli sport anjomlari, asbob-uskunalar, masalan, diametri 8 sm arqondan, jundan, lentadan, rezinadan yasalgan koptokchalar (rezina koptokchalar yuqori haroratda tarangligini yo‘qotmasligi uchun salqin joyda saqlanadi); 1 m uzunlikdagi sport tayoqlari, arqon, belbog‘lar, bayroqchalar, kigizlar, bolg‘a, aptechkalar, ko‘z og‘rig‘i kasalidan saqlanish uchun har bir o‘quvchining quyoshga qarshi ko‘zoynasi bo‘lishi kerak;

- sport turizm o‘tkaziladigan yo‘nalish tekis bo‘lishi, tikan, toshlar, shisha siniqlaridan doimo toza tutilishi lozim;

- mashg‘ulot o‘tkazilayotgan vaqtida trassada begona kishilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ular o‘quvchilarning xayolini bo‘ladilar va ularni chalg‘itib, ortiqcha harakatlar bo‘lishga majbur etadilar;

- trassadagi tabiiy buyum va narsalardan ham foydalanish zarur. Shu bilan bir qatorda turizmlarni o‘tkazishda quyidagi ekogigiena qoidalariga rioya qilinishi lozim:

- a) Sport turizmi tadbirlarida kiyiladigan kiyim yurishni qiyinlashtirmaydigan, yengil bo‘lishi lozim;

- b) yozda sport turizmdan so‘ng cho‘milish kerak.

O‘qituvchi asbob-uskunalarni tarqatish va o‘rnatish, sport turizm tadbirlarida yurish qoidalarining bajarilishini kuzatish va natijalarni hisobga olib borish uchun o‘ziga yordamchilar tanlab olishi mumkin.

Yordamchi sport turizmlarining bo‘lajak tashkilotchisidir. Yordamchi sport turizm ishtirokchilariga xolisona munosabatda bo‘lishi kerak.

Keng joylarda o‘tkaziladigan sport turizmlarni o‘tkazishda shu turizmlar bo‘yicha tajriba o‘ttirgan o‘quvchilarning o‘qituvchiga yordamchi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Sog‘ligi yaxshi bo‘lmagan va jismoniy tarbiya darsidan vaqtincha ozod etilgan o‘quvchilarni sport turizmga kuchi yetganicha qatnashtirish mumkin. Sport turizmni o‘quvchilar charchashini kutmasdan, harakatlar ularga qanchalik ta‘sir etayotganiga qarab tamomlash lozim. Sport turizmning qancha vaqt davom etishi ishtirokchilarning soni va yoshi, sport turizmning xarakteri va surati, texnik uskunalarining miqdori, ob-havo va bo‘lishiti yo‘nalishning holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Sport turizmi ishtirokchilarining jo‘shqin holatlariga qarab sport turizmni tartibga solish va



boshqarish, uning maqsadini, qoidalarining ma’nosi va ahamiyatini bilish kerak. O‘quvchilarning sport turizm qoidalariga rioya bo‘lishi doimo o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi lozim. Chunki ekoturizm qoidalariga rioya bo‘lish katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. O‘qituvchi turizmchilarning xatolarini shoshilmasdan va mulohazakorlik bilan qayd qilib borishi va har bir sport turizmi ishtirokchisining umumiy ekoqoidalarga bo‘ysunishga majbur bo‘lishi lozim.

Sport turizmchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar va qo‘polliklarning oldini olishga alohida ahamiyat bilan qarash lozim. Ayniqsa, guruhli sport turizmi ishtirokchilarida bo‘lishitning barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo‘lishini sezgirlik bilan kuzatib borish zarur.

Sport turizmi muvaffaqiyatli ortishining eng muhim sharti ehtiyotkorlik, hamjihatlik, sezgirlik, intizom va ularga qat’iy amal qilinishidir.

Sport turizmi tadbirlarida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o‘zlarini qanday tutishlari ko‘proq jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga bog‘liqdir. Sport turizmlar shartli ishora (buyurish, xuchtak yoki qarsak shalish, qo‘l yoki bayroqchani silkitish) bilan boshlanadi. O‘qituvchi barcha ishtirokchilar sport turizmi mazmunini tushunib olgani va qulayroq yerga joylashib olganiga qanoat hosil qilgandan keyin ishora qiladi. “Shartli chegaralar oldindan belgilab qo‘yilishi, sport turizm va yurish uchun zarur qo‘llanmalar esa sport turizm va yurish qoidalariga muvofiq bo‘lib berilgan va joy-joyiga qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Lider sport turizm borishini va turizm ishtirokchilarlarining harakatlarini diqqat bilan kuzatadi hamda boshqarib boradi”. Bundan tashqari, sport turizmlar davomida ayrim qoida va usullarni qo‘shimcha ravishda tushuntiradi. Tuzatish, tanbeh va mulohazalarni sport turizmning borishiga xalaqit bermaydigan yoki uni to‘xtatib qo‘ymaydigan yo‘sinda aytish lozim. Agar sport turizmi ishtirokchilarining ko‘pchiligi bir xil xatoga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsa, tegishli yo‘l-yo‘riq berish yoki yurish qoidalari qanday bajarilishini ko‘rsatish uchun sport turizmni to‘xtatish mumkin. Lekin uni baqirish yoki keskin ishora bilan to‘xtatish yaramaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning yurish qoidalarini ongli va aniq bajarishga odatlantirishi kerak. Bu odat ularni intizomga o‘rgatishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarda o‘z burchini bilish va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, o‘zini tuta bilish, matonatlikni o‘stirishda yordam beradi.

Demak xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sport turizmga rahbarlik bo‘lishda o‘quvchilarni faqat erishiladigan natijalarga qiziqtirish bilan cheklanmaslik, balki ularda sport turizm jarayonining o‘zidan zavq-shavq hosil bo‘lish, lazzatlanish hissini vujudga keltirishga ham jiddiy e’tibor berish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov A. T., Azizov M. A. THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT IN EMPHASIZING THE SPIRITUAL AND MORAL CLAIMS OF STUDENTS //экономика и социум. – 2019. – №. 9. – С. 6-7.
2. Азизов М. А. Формирование у учащихся культуры бережного отношения к природе в процессе организации и проведении походов //Молодой ученый. – 2012. – №. 3. – С. 339-342.
3. Бегалиев М. О., Азизов М. А. влияние соматической патологии на развитие личности человека //Неделя молодежной науки-2021. – 2021. – С. 421-422.
4. Juraev E. V., Azizov M. A. IMPORTANCE OF COMPETITION METHOD IN CREATING A HEALTHY COMPETITIVE ENVIRONMENT FOR //Экономика и социум. – 2020. – №. 1. – С. 46-47.
5. Azizov M. A. SPORT TURIZMI JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – С. 1209-1214.
6. Azizov M. Features of preparation of secondary school students for sports tourism //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 2. – С. 256-260.
7. Ahmadkhanovich A. M. PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF A CULTURE OF PRESERVING NATURE OF STUDENTS DURING TRAVEL. – 2021.
8. Азизов М. А. ГИГИЕНА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ-ПРЕДМЕТ, ЗАДАЧИ И МЕТОДЫ //Экономика и социум. – 2019. – №. 5. – С. 263-265.



## О‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Azizova Dilnoza Imomnazarovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani

9-umumiy o‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ta’lim-tarbiya inson hayotida muhim ahamiyatga molik. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish pedagogdan mashaqqat va sabr talab etadi. Bola shaxsini rivojlantirishda boshlang‘ich ta’limning ahamiyati juda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida qo‘llagan bir nechta samarali usullar va intefaol metodlar haqida tavsiyalar bermoqchiman.

**Kalit so‘zlar:** Interfaol metodlar, VARK modeli, “G‘ijmlangan qog‘oz”, kreativ, vizual, o‘qish, eshitish, kinestetik .

Boshlang‘ich ta’lim beruvchi o‘qituvchi haqiqiy fidokor va kreativ bo‘lishi lozim. Chunki bola o‘quvchilik olamiga tashrif buyurar ekan, uning uchun ustozidan boshqa bilimdon shaxs bo‘lmaydi. Bolaning maktabga ilk qadam qo‘yganidan boshlab yangi ijtimoiy muhitga singib ketishi ham birinchi ustozning mehnati va himmatiga bog‘liq bo‘ladiki, pedagog har bir o‘quvchiga psixologik yondoshgan holda o‘qitishi, bolalik o‘yinqaroqligidan mas’uliyat tomon olib o‘tishi lozim bo‘ladi. Bola jamoat joyida o‘zini tutishni, boshqalar bilan munosabatga kirishishni, inson sifatida ulg‘ayishni boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘rganadi va qabul qiladi.

Pedagog qanchalik ijodkor va tajribali bo‘lsa, shunchalik turli psixikaga ega bolalarga bir maromda bilim va tarbiya bera oladi. To‘g‘ri, o‘quvchilarning bilim olish saviyasi, nutqiy so‘zamolligi, fikrlash doirasi, xotirasi, bilim olish xususiyatlari, qobiliyatlari bir xilda emas, ammo o‘qituvchi dars o‘tish mahorati, o‘zini tutishi, so‘zlashi, fikrlashi orqali bolaga ta’sir o‘tkaza oladi. E’tibor bersangiz, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning katta foizi katta ehtimollik bilan o‘qitgan o‘qituvchisiga o‘xshab ketadi. Ya’ni madaniyati, tarbiyasi, ijodkorligi, o‘zini tutishi va xakozo. Shunday ekan, zamonaviy ijodkor shaxsni voyaga yetkazishni maqsad qilgan biz-pedagoglar o‘z ustimizda ishlashimiz turli yangiliklar va zamonaviy metodlardan foydalanishimiz zarur deb hisoblayman. Shu o‘rinda, bir nechta yangi usullar haqida sizlar bilan bo‘lishmoqchiman.

**VARK modeli** .Ushbu model dunyoning rivojlangan davlatlarida maktab o‘quvchilari uchun eng samarali deb topilgan. Dunyo tan olgan ushbu modelni siz ham dars mobaynida bimalol qo‘llab ko‘rishingiz mumkin.

Ushbu metodlar, albatta, o‘qituvchining ishini yengillashtirish, o‘quvchilar bilan oson kelisha olish, dars jarayonini tushuntirishda o‘qituvchiga ortiqcha yuklamalarni kamaytirish uchun kerak bo‘ladi. Bugungi modelimiz ham sizga, albatta, katta foydasi tegadi.

### **VARK modeli haqida**

Vanderbilt universiteti ma'lumotlariga ko'ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari **VARK modelida olingan to‘rtta uslublardir:**

**Vizual (kosmik) – o‘quvchilar ko‘rish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.**

**Eshitish (eshitish) – o‘quvchilar eshitish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.**

**O‘qish / yozish- o‘quvchilar o‘qish va yozish orqali eng yaxshi narsani o‘rganishadi.**

**Kinestetik (jismoniy) – o‘quvchilar harakat qilish va bajarish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.**

Siz darsingizni yuqoridagi uslublardan foydalangan holda tashkillashtirganmisiz? Bu uslublardan dars mobaynida foydalanasiz. Faqatgina ularning yanada chuqurroq mohiyatini bilib olsangiz darsingiz yanada oson tashkil qilinadi. Ushbu to‘rtta uslubni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Vizual ta’lim uslubi. Vizual o‘qitish uslubi video tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan va rasmlar, jadvallar va grafikalar singari taqdimotlarni ko‘rishni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Inson miyasi vizual ma'lumotni oddiy matnga qaraganda ancha tezroq qayta ishlaydi. Darsingizda ushbu vositalardan tez tez foydalanib tursangiz, o‘quvchilarda qiziqish yanada ortadi.

Eshitish orqali o‘rganish uslubi. Eshitish orqali o‘rgatish uslubi ma’ruzalalar va audio kitoblarni tinglashni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Ushbu o‘quvchilar eshitgan narsalarini o‘rganishi oson bo‘ladi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, o‘quvchilar film tomosha qilsalar, sodir bo‘lgan harakatlarni emas, balki filmda aytilganlarni yaxshi eslab qolishadi. Shuning uchun darsingizda turli podcastlardan foydalanib turing.



O‘qish / yozish orqali o‘rganish uslubi. O‘qish va yozish orqali o‘rganish uslubi, siz kutganingizdek, o‘qish va yozishni yaxshi ko‘radigan odamlarga mos keladi. Buning sababi shundaki, ular o‘qigan va yozgan so‘zlar ongida osonlikcha saqlanib qoladi. Bu usul har bir darsda ishlatiladi. Chunki o‘quvchida o‘qish va yozish orqali ma’lumotlar yaxshi saqlanib qoladi.

Kinestetik ta'lim uslubi. Bu usul sinfda turli harakatlardan iborat o‘yinlar va musobaqalar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarni turli o‘yinlar orqali o‘rinlaridan turishi va turli harakatlar qilishi darsda tetik va diqqat bilan o‘tirishlariga katta yordam beradi.

“G‘ijimlangan qog‘oz” darsni faollashtiruvchi texnikalardan biri. Dars davomida mavzuni o‘tib, o‘quvchilarga qog‘ozda mavzu bo‘yicha savol yozish so‘raladi. O‘quvchilar savol yozgan qog‘ozlarni g‘ijimlab, savatga solishadi. Savatda to‘plangan qog‘ozlarni boshqa guruh o‘quvchilari olishadi va javob yozishadi va yana boshqa savolni yozib qayta g‘ijimlab, savatga solishadi va qayta egalariга yuborishadi. Bu mashg‘ulot o‘quvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Darsni ham oson o‘rganishadi. Qayta aloqa sifatida o‘quvchilar bir-birlarini baholashi hamda nazoratga olishi, murakkabroq savollar tuzishni, yechim topa olishni o‘rganishadi.

Xulosa qilish mumkinki, zamonamiz rivojlanishi natijasida yosh avlod ham qiziquvchan yangilikka o‘ch. Doim an‘anaviylikda- bir xillikda o‘quvchi tezda zerikadi. Interfaol metodlar orqali dars o‘tish jarayonida o‘quvchining fanga qiziqishi ortadi, kreativligi namoyon bo‘ladi. Ularning mustaqil ishlashi, fikrlarini jamlash va xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Xoliqov. Pedagogik Mahorat T-2011
2. Ishmuhammedov M, Yo‘ldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998



**YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDA AJDODLARIMIZ  
MA’NAVIY MEROSINING O’RNI.**

**Eshchanova Xolida Xudayarovna,**  
Xorazm viloyati PYMO‘MM “Pedagogika  
va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”  
kafedrasida katta o‘qituvchisi.  
Telefon: +998914333403  
yibrat@inbox.ru

**Anotatsiya.** Ushbu tezisda sayohat metodi asosida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini, keng targ‘ib etish, yoshlar orqali taraqqiyotimizga to‘sqinlik qilayotgan illat va muammolarni bartaraf etish usullari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviyat, shaxs ma’naviyati, axloq, milliy g‘urur, yakka ishlash, guruhda ishlash, refleksiya, taqdimot, ishbilarmonlik o‘yini, rolli o‘yin, sayohat.

Bugun jamiyatimizda uzliksiz ta’lim tizimini isloh qilishda asosiy e’tibor insonni ma’naviy-axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashga va shu orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish”<sup>1</sup> vazifasi qo‘yilganligi ham buning isbotidir.

“Inson ma’naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini, keng targ‘ib etish, yoshlar orqali taraqqiyotimizga to‘sqinlik qilayotgan illat va muammolarni bartaraf etish mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar chuqurlashuvi barcha sohalarga, shu jumladan, shaxs ma’naviyatini yana-da yuksaltirishga qaratilgandir”<sup>2</sup>

Ta’lim – tarbiya jarayonida o‘quvchilarga milliy-ma’naviy merosimizni o‘rgatish uchun eng qulay usullar: yakka ishlash, guruhda ishlash, refleksiya, taqdimot, ishbilarmonlik o‘yini, rolli o‘yinlar kabi usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarning qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglashga o‘rgatishda ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Masalan, milliy qadriyatlarimizni o‘rganishda bolalarga sayohat ham o‘z samarasini berdi. Chunki o‘quvchilar bevosita o‘z o‘lkalaridagi madaniy meros ob’ektlarni ko‘rib, ularning tarixiga nazar tashlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo etiladi. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”ning “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vazifalari, “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” yo‘nalishida IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub asarlarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish vazifalari belgilab berilgan.

Ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosi yoshlarning o‘z Vatanini gullab-yashnashi uchun fidoiy bo‘lishi, o‘z xalqining buyuk o‘tmishidan faxrlanuvchi millat farzandlari bo‘lib shakllanishi uchun xizmat qiladi. O‘zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Madaniy merosimizda butun dunyoga mashhur imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Naqshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, A. Navoiy kabi ko‘plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan. Bu merosda buyuk me’morchilik yodgorliklari, tasviriy san’at,

1 O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. “Xalq so‘zi”, 2019 yil 30 aprel.

2 Qambarov A.A. Qadriyatlar tadqiqining konseptual asoslari va rivojlanish bosqichlari. “Ilim sharchashmalari”, 2021, 4-son 35-40 betlar.



musiqa, amaliy san'at asarlari, xalq urf-odatlari va an'analari, milliy sport turlari uyg'unlashgan. Yoshlar ajdodlar merosi asosida milliy urf-odat nimaligini, salomlashish, kattalarni xurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, o'zgalarning mexnatini xurmat qilish, ota-onani e'zozlash, oila muqaddas kabi tushunchalarni egallay oladilar.

Avvalo “Ma’naviyat” so‘zining ma’nosi va mazmunini ko‘rib chiqmoq zarur.

“Ma’naviyat” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ma’no” fe‘lidan olingan ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g‘amho‘rlik, did kabi bir qancha ma’nolarni anglatadi. Ma’naviyat inson hali xat-savodli, ma’rifatli, madaniyatli bo‘lib ulgurmasdan oldinroq uning tili, ongi, tafakkuri bilan dunyoga keladi. Ma’naviyat va madaniyat egizak va mushtarak tushunchalardir. Shu sabab ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy-madaniy boylik bugungi barkamol avlod tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya inson kamoloti yo‘lidagi shunday bir vositaki, uni chetlab o‘tish mumkin emas. Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, ularning hayotiy tajribalari, yashash tarzlari, insoniy xususiyatlari komil inson tarbiyasining asosiy omillaridan sanaladi. Biz bu ma’naviy-madaniy boyliklarni o‘rganish sari, fikrimiz charxlanadi, o‘zimizni ajdodlarimizga yaqinroq sezamiz.

Bugungi kunda turli yot g‘oyalar, global xavf-xatarlar chuqur ildiz otib borayotgan davrda, milliy o‘zlikni anglash, haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Asosiysi mustaqillik tufayli xalqimizning madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga keng yo‘l ochildi. Hozirda milliy meros mohiyatini anglashgina emas, shu bilan birga uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Binobarin, biz ham uni ko‘z qorachig‘iday asrashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak. Ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” 2021yil 30 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari // Toshkent: O‘zbekiston. 2020. – B. 401, 105-106.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. “Xalq so‘zi”, 2019 yil 30 aprel.
4. Qambarov A.A. Qadryatlar tadqiqining konseptual asoslari va rivojlanish bosqichlari. “Ilim sharchashmalari”, 2021, 4-son 35-40 betlar.



## DARSLARIDA MUOMMOLI TA'LIM USULIDAN FOYDALANISH

Fayziyeva Nargiza Abduraximovna  
Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 8-maktab  
Ona tili va adabiyot o'qituvchisi  
+998- 90 -317-20-04

### Annotatsiya

Ta'limni rivojlantirish orqali kelajak farovonligiga erishish maqsadida, yosh avlodni o'qitishga e'tibor kuchaymoqda. Ta'lim tizimiga STEAM, PBL kabi ta'limning zamonaviy yondoshuvlari kirib keldi. Ushbu maqolada shu usullardan biri PBL asosida adabiyot darslarini tashkil qilish xususida fikrlashmoqchiman.

**Kalit so'zlar:** muommoli ta'lim, PBL, yechim, bilim, nazariy qoidalar, she'riy san'atlar.

Ta'lim olish jarayonida adabiyot fanini san'at darajasida o'rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Badiiy asar tahlili juda katta mahorat va bilim talab etadi. Shu o'rinda biz she'riy asarlar tahlili xususida so'z yuritmoqchimiz. Maktab darsliklarida she'riyat qoidalari bilan birgalikda she'riy san'atlar ham o'rganiladi. Buning natijasida o'quvchi so'z sana'tining mohiyatini anglaydi, suratni emas siyratni ko'ra oladi, asarning salmog'ini his qiladi va g'oyaviy mazmunni tushuna oladi. Shu tufayli darslarning qiziqarli va jonli o'tishini nazarga olib quyidagi ta'lim usulidan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman. Ya'ni darsda zamonaviy yondoshuv PBL asosida ham muommoli ta'lim usulidan foydalanish mumkin. P-problem-muommo, B-based-asoslangan, L-learning-o'rganish. Demak, muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish.

O'quvchilarga she'riy san'atlar qoidasi o'rgatiladi: Tazod, tashxis, talmih, intoq, husni ta'lil, tardu aks, tajohuli orif, tamsil va xakozo. Masalan,

Tazod-qarshilantirish ma'nosini bildiradi, ya'ni she'rda qarama-qarshi ma'noli so'zlarni eltirish orqali ta'sirchan badiiy timsollar yaratiladi. Masalan:

Tashxis-jonlantirish: hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir. Masalan, Lutfiyning

Yuzidin lola rang eltib uyolib shahrga kirmas,

Kishikim bo'ynidin bog'lab keturmoguncha sahrocin

Baytda lolaga insoniy xususiyatlarni ko'chirish holatini ko'raamiz.

Talmih- nazar solmoq ma'nosini bildiradi, she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san'atidir.

Senga bersun ilohi Nuh umrin,

Manga ham Furqatingda sabri Ayub.

Atoyining bu baytida Nuh va Ayub payg'ambarlarga ishora qilingan. O'quvchilar uchun ushbu ishora qilingan payg'ambarlarimiz, qahramonlar, farishtalar, voqealar, mashhur asarlar haqidagi ma'lumotlar ham g'oyatda qiziqarlidir.

Intoq-so'zlatish, gapirtirish (nutqlantirish) ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatish nazarda tutilgan. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida tovusning so'zi.

Men qusheman qasru gulshan ziynati, Naqshu rangim ahli olam hayrati.

Tardu aks-teskari qilib takrorlash. Birinchi misrada kelgan so'z yoki so'birikmalari keyingi misrada o'rini almastirib qaytarish. Masalan, Bobur bayti:

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib **balo qaro** soching,

Shikasta ko'ngluma ermish **qaro balo** soching.

O'quvchilarga muommoli masala yuklanadi. Buni mumtoz asarlarimizni o'rganish jarayonida amalga oshirsak maqsadga muvofiq. Masalan, adabiyot darsida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy Atoyi kabi shoirlar she'rlarini badiiy tahlil qilish jarayonida qo'llashimiz mumkin.

**G'azallardagi badiiy tasvirlarga e'tibor berib,**

**Kim ko'p she'riy san'at turini aniqlay oladi?**

Bu muommo guruhga yoki yakka o'quvchiga yuklanishi mumkin, jarayon davomida o'quvchi olgan nazariy bilimni amalga qo'llashga harakat qiladi.

Birinchidan berilgan she'rni qayta-qayta o'qiydi, natijada mazmunni anglaydi!



Ikkinchidan o‘quvchi diqqatini jamlaydi va bir muommoning ustida bosh qotiradi, natijada yechim topa oladi, bundan o‘ziga ishonch tuyg‘usi ortadi.

Uchinchidan, she‘riyat qoidalarini nazariy ma‘lumotlarni mustahkam o‘rganib oladi, natijada shakl va mazmun mohiyatini farqlay oladi. Sababi she‘riy san‘atlar yo so‘z shakli bilan yoki mazmuni bilan bog‘liqku.

To‘rtinchidan, ijodkorlikka ishtiyoq uyg‘onadi, ya‘ni qiziqish natijasida o‘zi ham qayta shunaqa bayt yoki she‘r yozishi mumkin.

Beshinchidan, Ma‘lum muommoli vaziyatlar, aslida murakkab emasligini, vaziyat yechimini topa olishni o‘rganadilar.

Darslarda muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o‘rganish o‘qituvchini maqsad sari oson olib boradi, o‘quvchida mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchiga tayyor tahlillarni bersak, san‘tlarini ham aytib birma-bir tahlil qilib bera olamiz biz ustozlar, lekin o‘quvchining ongida bu vaqtincha saqlanadi. O‘zi qachonki, shu san‘at turlarini topib ololsagina, bu hech qachon esidan chiqmaydigan qat‘iy bilim bo‘ladi.

Xulosa shuki, mohir pedagoglar darsni san‘at darajasida o‘tadilar. Muommoli ta‘lim usulidan barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Hojjahmedov. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. T-1998
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 151 b





## ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Igamova Malika Jurayevna

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 75-maktab

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

+998- 90 -317-20-04

### Annotatsiya

O'quvchilar fikrini jamlash va bilim berish uchun ta'lim berishning yangi usullaridan foydalanish samara beradi. Kreativ o'qituvchi bo'lish zamon talabidir. Ushbu maqolada bir nechta metod va texnologiyalar haqida batafsil to'xtalaman.

**Kalit so'zlar:** Zapusk texnologiyasi, kreativlik, vaqt taqsimoti, Avtofokus metodi, uslub, bilim, ko'nikma.

Dars jarayonida o'quvchilarning bilim olishi, albatta, o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, izlanuvchanligi, tayyorgarligiga bog'liq. Bilimli bo'lish bilan birga ijodkor bo'lish zamon talabi, chunki texnika rivojlangan davrda yashamoqdamizki, o'quvchilar juda ilgarilab ketmoqda. Shu o'rinda o'qituvchi har bir darsini yangiliklar bilan turli xil metodlardan foydalangan holda olib borishi darsning samaradorligiga kafil bo'ladi. Izlanishlarimiz natijasida bir nechta metod va usullarni sizga ham tavsiya etmoqchimiz.

Zapusk texnologiyasi Buyuk Britaniyaning o'qitish texnikalari orasida eng samaralisi va mashhuri hisoblanadi. Ushbu metod orqali siz dars muhitini o'zingiz istagan atmosferada olib bora olasiz. Bu metodning yana bir muhim jihati shundaki, o'quvchilarni boshqarish ham siz uchun yanada osonlashadi. Birinchi bilib olishingiz kerak bo'lgan jihat: darslar 80 daqiqa davom etadi. Ushbu vaqt davomida siz o'quvchilarni 100% aktiv holatda ushlab turishingiz juda qiyin. Ammo siz dars boshlanishi va tugash qismida Zapusk texnologiyasidan foydalansangiz, ya'ni qarmoq tarzida darsga aloqador qiziqarli jumboqni aytish bilan darsingizni boshlasangiz, albatta, bu barcha uchun juda ham qiziqarli bo'ladi.

Dars davomida o'quvchilarni doimiy tarzda diqqatini ushlab turish mumkin. Faqatgina sizdan biroz kreativlik talab etiladi xolos. Zapusk texnologiyasi ham ushbu muammolarga oqilona yechim bera oladi.

Zapusk texnologiyasining asosiy mazmuni. Darsga kirdingiz va o'quvchilarga bugungi mavzuga aloqador jumboqli savol bering. Bu savolingiz shunchalik qiziq bo'lsinki, o'quvchilar ushbu jumboqni javobini bilishga oshiqsin.

Savol berishda bir narsaga e'tiborli bo'ling. Jumbog'ingiz, albatta, o'quvchilarga tanish va qiziq bo'lsin. Masalan, Adabiyot fanidan o'quvchilarga tanish va qiziq bo'lgan shaxs haqida jumboqli savolni o'rtaga tashlang.

Dars boshlanishida beradigan ushbu jumbog'ingizni bir muddat o'quvchilar muhokama qilishsin. Javobni bilishga qiziqish darajasiga yetishgan paytda siz yangi mavzuni o'tishga kirishing va javobini dars davomida aytishingizni bildiring. O'quvchilar butun dars davomida qiziqarsiz mavzuni ham katta ishtiyokda tinglashadi va dars oxirigacha barcha o'quvchining diqqatini ushlab tura olasiz. Shuni unutmangki, bu kabi qizg'in darslar o'quvchining yodida yaxshi qoladi. Siz o'tgan qiziqarli darslarni o'quvchilar boshqa ustozlarning darslari bilan taqqoslashadi.

Sinfdagi zerikarli dars muhitining birinchi sabablaridan biri bu - o'quvchilarning diqqati pastligi, darsga befarqligi va dangasaligidir. Bunday vaziyatda asosiy mas'uliyat o'qituvchining bo'yunda bo'ladi. Qanday qilib bo'lsa ham o'quvchilarni darsga e'tiborini qarata olish kerak.

Bugungi Avtofokus metodi orqali o'quvchilarda ushbu muammolarni osonlikcha hal qila olasiz. Ushbu metod o'quvchilarning ixtiyoriy darsga e'tibor qaratishlarini ta'minlaydi.

Avfofokus metodining asosiy mazmuni

Ushbu metodni qo'llashda sizga **qizil va oq kartochkalar** kerak bo'ladi. Sinfdagi o'quvchilarning har biriga ushbu kartochkalarni tarqatib chiqasiz. Albatta, buni dars boshida amalga oshirasiz.

So'ngra dars mobaynida to'satdan savol berib qolasiz, demak savollar quyidagicha:

"Qizil kartochkasi borlar o'rnidan tursin" Va mavzu yuzasidan biror savolni turgan o'quvchilardan istalgan biriga berasiz. Javob topa olishsa, qizil kartochka guruhiga bir ball qo'shib qo'yasiz.

Keyin yana dars davomida to'satdan **oq kartochkasi borlar o'rnidan tursin** deysiz va yuqoridagi kabi, oq kartochkasi bor o'quvchilardan istalganiga mavzu yuzasidan savol berasiz.



Shu tartibda darsning so‘ngigacha bir necha marotaba ushbu usulni qo‘llaysiz.

Natijada dars mobaynida barcha o‘quvchilar hushyorlikda bo‘lishadi. Bu usul o‘quvchilarni harakatga keltirish ya’ni o‘rinlaridan turish jarayonida darsga bo‘lgan qiziqish signallarini orttiradi. Qolaversa, istalgan o‘quvchiga beriluvchi savollar barchani mavzuni diqqat bilan eshitishga majbur qiladi. Bu jarayonda bellashuv ham ketmoqda! O‘quvchilar o‘zaro bellashish orqali ixtiyoriy darsga diqqatlarini qaratishadi. Ya’ni siz o‘quvchilarda Avtofokus muhitini yaratgan bo‘lasiz.

Eski metodlardan voz kechgan holda siz uchun kutilmagan uslub haqida ma’lumot beramiz. Ushbu metodni o‘quvchilaringizga o‘rgatish orqali kreativ pedagog ekanligingizni yana bir bor isbotlagan bo‘lasiz!

Yuqoridagi usullarni, albatta, qo‘llab ko‘ring! Samarali o‘qituvchi bo‘lish juda qiyin, chunki har bir o‘quvchi o‘ziga xosdir, ammo o‘qitish strategiyasidan foydalangan holda o‘z sinfingizni o‘quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitga aylantirishingiz mumkin!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhammedov M, Yo‘ldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998
2. ziyonet.uz
3. eduportal.uz



TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Olimov Saydullo Soxobjonovich**

O`zMU Ijtimoiy fakulteti  
Psixologiya kafedrası magistranti  
+99899 493 28 77 saydullo.  
soxobjonovich.77@gmail.com.

**Annotatsiya:** Dunyodagi mavjudotlar ichida insoniyat onga ega yagona mavjudot bo`lsada, boshqaruvchiga ehtiyoj doimo vujudga keladi.

**Аннотация:** В то время как человечество является единственным разумным существом среди существ в мире, всегда есть внешнее по отношению к контроллеру.

**Абстракт:** Although humanity is the only conscious being among the creatures in the world, there is always a need for a manager.

**Kalit so`zlar:** talabalar, yoshlar, boshqaruv, akseleratsiya, tavakkalchilik, faoliyat.

**Ключевые слова:** студенты, молодёжи, управления, акселерация, риск, деятельности.

**Key words:** students, youth, management, acceleration, risk, activity.

Talabalarda boshqaruvni o`rganish muhurligi dunyoning turli ilmiy maktablarida olib borilayotgan tadqiqotlar inson ongining o`sb borish tezlashganini takidlanmoqda. Ilm fan dunyosiga akseleratsiya ya`ni jismonan va ruhan rivojlanishning tezlashganligi xaqida ma`lumotlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Texnika inqilobi deyarli har kuni sodir bo`lmoqda. Raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish davlat va jamiyat hayotining tezlashgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayoninig muhum bo`g`ini bo`lib qolmoqda.

Yoshlar masalalariga prezidentimiz tomonidan ham xar doim alohida e`tibor berib kelingan.”Ayni paytda axborot texnologiyalari soxasida chuqur bilim va malakaga ega bo`lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur” [1.b-230].

Barcha jabhalarda akseliratsiya jarayoni sodir bo`layotgan ekan bu jarayon boshqaruv sohasini ham chetlab o`tmaydi. Yoshlarga boshqaruvni berish masalasi qadimdan dolzarb ekani ta`kidlab kelingan. “Men shiddatli harakat tarafdoriman, zeroki Fortuna-ayoldir. Ayolni esa urib-tepib bo`lsada bo`ysundirish kerak. U ko`pincha ehtiyotkorlarga emas, shiddatkorlarga nasib qiladi. Ayolligi uchun ham u *yoshlarga moil*, chunki yoshlar-kattalardek ehtiyotkor emas, *bo`ysundirishga zo`r dadillik bilan kirishadilar*” [3] Talabalik davridan boshqaruvga oid ko`nikmalar va malakalarni shakillantirib borsak, yoshlardagi g`ayrat va shiddatni oqilona va omilkorona yo`naltirgan bo`lar edik.

Boshqaruv masalasiga ko`plab olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Boshqaruv muammosi bilan ilmiy izlanishlar olib brogan F.Taylor, E.Meyo, A.Fayol, M.Veber, Urbanovichlar ishlari insonlarni boshqaruv soxasiga olib boriladigan samarali tadqiqotlar nazariy-metodologik asos bo`lib xizmat qiladi.

Rossiyalik psixolog tadqiqotchilar L.S.Vigotskiy,G.M. Andreyeva R. Nemov ,V.M.Bexterev D.V.Parigin psixologiya yo`nalishida ishlarini olib borgan [2].

O`zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar E.G`oziyev, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova tomonidan salmoqli ishlar olib borilgan, ammo talabalarda boshqaruvning psixologik xususiyatlari muammosi yuzasidan alohida ishlar amalga oshirilmagan.

Talabalar bilan olib borilgan tadqiqot ishlari Abdumajidova Dildora Raxmatullayeva “Talabalarda assertiv hulqni shakillantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusida talabalar o`rtasida assertiv hulq-atvorni o`rganishga qaratilgan, Akramov Mirmuxsin Rustamovich “Talabalarda ekologik tasavvurlar rivojlanishining psixologik jixatlari” mavzusidagi tadqiqotida ekologik tasavvurlar rivojlanishining psixologik jixatlari, ekologiya bilan ongli munosabatda bo`lish, axloqiy ong shakillanishi xususiyatlari tor oilaviy muhitdan keng ijtimoiy muhitga ko`chishi bilan ekologik madaniyatni shakillantirishi ochib bergan. Meliboyeva R.N. ”Talabalarda tafakkurni rivojlanishining psixologik mexanizmlari” mavzusida olib borgan tadqiqotida talabalar tafakkuri rivojlantirishga asossiy e`tibor qaratgan.

Biz tadqiqotimizni O`zMU va QDPI talabalari bilan “Talabalarda boshqaruv faoliyatining psixologik xususiyatlari” mavzusini yoritishga xarakat qildik. Buning uchun biz Harifordning Lider



(sardor) metodi, Xarakteringizni bilasizmi, T.Elersning Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, T.Elersning Mag`lubiatdan qochish motivatsiyasi, Shubertning Tavakkalchilikka moillik diagnostikasi, KOS-2 Kommunikativlik va tashkilotchilik diagnostikasi metodlaridan foydalandik.

Biz tadqiqotimizda talabalar ichidan rahbarlikka qobiliyati past va rahbarlikka qobiliyati yuqori bo`lganlar o`rtasida farqlarni kuzatdik. Tadqiqotimiz natijalariga ko`ra “Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini aniqlash”, “Tavakkalchilikka moillik” o`rtasida ishonarli farqlarni topdik.

Xulosa. Rahbarlik qobiliyati pastlarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi past bo`lar ekan. Rahbarlik qobiliyati yuqorilarda Muvaffaqiyatga intilish yuqori bo`lar ekan.

Rahbarlikka qobiliyati pastlarda tavakkalchilikka moillik teskari manfiy qutubga ekanini kuzatdik. Rahbarlik qobiliyati yuqorilarda tavakkalchilikka moillik yuqori bo`lar ekan.

Agar biz talabalarda tavakkalchilik qilishga turli treninglar orqali ularda ko`nikma va malaka hosil qilsak ularda faoliyaga boshqaruvga, tadbirkorlikka qiziqish va intilish uyg`otgan bo`lar edik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Мирзиёев Ш.М. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. Тошкент; O`zbekiston 2020. 464–б.
2. Каримова В., Акрамова Ф., Лутфиллаева Н. Ижтимоий психология (ўқув қўлланма) Тошкент -2011. -154 б.
3. Макиавелли Н. Ҳуқумдор. Зоҳир Аълам таржимаси.”Жаҳон адабиёти” журнали ,2002 йил, 9-сон. ziyouz.uz



---

FOSTERING INFORMATION CULTURE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Saydazimova Durдона Xabibullayevna

Associate professor of Tashkent State

Pedagogical University

Telephone: +998994390249

dsaydazimova44@gmail.com

**Annotation:** The article describes features of the formation of future teachers' information culture. The relevance of the development, implementation and maintenance of the technology of forming process of information culture of future teachers is substantiated. Different views of scientists on the definitions of “information culture of a person”, “technology” are considered.

**Key words:** information, culture, educational system, systematization, technology, organization, analysis, synthesis, evaluation

In modern conditions, education is increasingly focused not only on the completeness of the reported information, but also on the ability to extract information, comprehend it, transform it, and extract the necessary knowledge from it. There is no doubt that the solution to the problem of forming an information culture among students is possible only after teachers themselves master the information culture.

The productive of a modern teacher with information and educational systems requires him to have an information culture, since the key task of the teacher is the selection, systematization, structuring of the necessary educational information, its adequate presentation using the capabilities of information technologies, and such an organization of students' activities that will allow they work with the information presented not at the reproductive level, but at the level of creativity, when information selection, its analysis, synthesis, evaluation and the birth of new knowledge are required.

The teacher needs to know the features of the circulation of information flows in the educational space, be able to design an information and educational environment in his educational area, be able to independently conduct information search, extract information from various sources, present it in a form accessible to students and use it effectively in the pedagogical process. If the teacher has the appropriate knowledge and skills to work with information, he will be able to teach this to his students.

D. K. Anasheva understands the information culture of the teacher as one of the components of the general culture of the individual, associated with the social nature of a person and being the product of his various creative abilities [1]. She notes that the teacher's information culture characterizes his information worldview, a system of knowledge and skills that provide independent activities to optimally meet professional information needs using both traditional and new information technologies.

According to A.A. Andreev, the teacher's information culture has invariant and variable parts. The invariant part of the information culture of the teacher is a particular case of the information culture of the individual and the information culture of the specialist. It characterizes common features that reflect the universal composition of information knowledge and skills: the ability to navigate information resources according to the profile of activity, mastering information retrieval algorithms, mastering the skills of analytical and synthetic processing of information, knowledge of the general rules for preparing information products, mastering new information and communication technologies. The variable part reflects the specific features of the teacher's professional activity: the creation of information and educational products [2].

I.N. Bakalenko believes that the information culture of a teacher is a kind of information culture of a specialist, part of the information culture of a person, determined by the sphere of professional and pedagogical activity, which is a combination of information worldview and information competence, translated into the educational process, which determines the quality of information and educational products and aimed at forming the information culture of students [3].

Information culture reflects the features of a teacher's professional activity: the formation of a student's information culture, the awakening in him of a constant need for information and knowledge, the development of skills for the correct formation of an information request, search,



fixation and use of the data obtained, their critical evaluation and selection.

In the conditions of informatization of education, the general complex of professionally important qualities necessary for the success of professional activity is supplemented by specific qualities that characterize the level of the teacher's information culture. Yu. A. Belchikov, refers to them as follows:

"Pursuit:

- interest in modern methods of information exchange and the search for new ways to intensify the educational process on an information basis;

- the need for constant updating of knowledge about the possibilities of using information technologies in a professional and general cultural environment;

– professional mobility and adaptability in the information society.

Personal qualities:

- responsibility when working with technical means, a combination of personal freedom and responsibility for the information security of society and the individual;

- consistency in the formulation and consistent solution of pedagogical problems using information technology tools;

– confidence in the correctness of making non-standard decisions.

Position:

- attitude to information, objects and phenomena in a rapidly changing information environment, a critical attitude to information consumption;

- the style of pedagogical communication and interaction with people within the information environment, self-assessment and reflection at the level of information contacts;

– affirmation of morality and tolerance in computer communication” [4].

The level of formation of the information culture of the teacher can be determined by the following set of criterial indicators:

- the state of information self-awareness of the teacher (general cultural and professional erudition; understanding and acceptance of the values of information activity; reflectivity of the professional position; the use of information educational resources for the purposes of self-education; consistency of real activity with values);

- the development of information technology skills (the use of information technology in solving urgent pedagogical problems; the availability of a flexible system of skills; participation in ensuring information interaction in an educational institution);

- creative activity and independence (participation in project activities, creation of own information products; presence of an author's position (methodology); ability to make a choice and attract the necessary information resources);

- emotional attitude to information activity (positive professional self-assessment; presence of interest in information activity; satisfaction with the results of one's own information and pedagogical activity);

- success and efficiency of information and pedagogical activities (availability of achievements in the field of information and pedagogical activities; recognition by the professional community; participation in joint projects with other specialists).

According to I. B. Bicheva, the information culture of a teacher is wider than just the information culture of a person, since it also includes a professional component [5].

An important aspect of the teacher's information culture was considered by E. V. Bondarevskaya, when creating the author's concept, she proceeded from the main idea that the formation of a teacher's information culture should involve the use of a project-reflexive approach, which reflects several provisions:

- the development of the teacher's information culture is possible only in activities that require the teacher to integrate his computer competence with pedagogical competence;

- not every activity can contribute to the development of the information culture of the teacher.

An activity with such an opportunity includes project activities performed by a teacher using information technology. The result of such activity is, on the one hand, the author's solution of a certain pedagogical problem (for example, block-modular organization of the study of the topic), and on the other hand, the result of the project activity is to improve the quality of education of students, to develop the information culture of students and the teacher himself;

- the formation of a teacher's information culture requires the development of reflexive



processes that act as a system-forming factor in the development of the psychological, activity and information components of information culture, influencing the teacher's ability to integrate these aspects in their professional activities;

- the development of reflection as the basis for the formation of information culture requires a special work of the teacher to analyze their own project activities, performed using information technologies" [6].

Mastering a holistic information culture, the information world of explanations and understanding is one of the tasks of training a modern specialist in the field of education. Consequently, information culture is becoming a new important quality in the professional training of a 21st century education specialist.

#### **The list of used literature**

1. Anasheva, D. K. Formirovanie informatsionnoy kultury kak uslovie razvitiya informatsionnoy komentetnosti budushchego prepodavatelya angliyskogo zyyuka / D. K. Anasheva // Vestnik Euraziyskogo natsionalnogo universiteta imeni L. N. Gumileva: Kazakhstan. - Astana, 2010. - No. 1 (74). - S. 130-136.

2. Andreev, A. A. Nekotorye problemy pedagogiki v sovremennyx informatsionno-obrazovatelnyx sredakh / A. A. Andreev // Telecommunications and informatization obrazovaniya. - 2002. - No. 6. - S. 25-38.

3. Bakalenko, I. N. Vnedrenie informatsionnyx tekhnologii obucheniya v protsess spetsializirovannoy podgotovki budushchikh uchiteley-slovesnikov / I. N. Bakalenko // Filologicheskie nauki. - Vestnik Zaporizhia University. - 2012. - No. 1. - S. 32-39.

4. Belchikov, Yu. A. Kulturovedcheskiy aspekt filosofskikh discipline / Yu. A. Belchikov // Filosofskie nauki, 1998. - No. 4. - P.48-56.

5. Bicheva, I. B. Activation of cognitive activity in training and educational processes at VUZ [Text] / I. B. Bicheva, A. E. Golubeva, I. A. Tsareva// Science of symbols, 2015. - No. 10-1. - S. 152-154.

6. Bondarevskaya, E. V. Pedagogical culture kak obshchestvennaya i lichnaya tsennost [Text] / E. V. Bondarevskaya // Pedagogy, 1999. - No. 3. - S. 37-43.



**ШИФОКОР БОР ЭКАН, ДАРД ЧЕКИНИБ, БЕМОР СОҒАЯДИ.**

**К.Я.Бахронова**

Бухоро инновацион тиббиёт институти,  
кафедра мудири, психол.ф.д. (PhD)  
Email: komilaba338@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада инсон омили кишиларнинг ахлоки, одати, маданияти, интизоми, меҳнатсеварлиги, фидойилиги каби фазилатлари билан узвий боғликлиги ва шифокорлик касбини эгаллайман деган инсон бир қанча одамийлик фазилатларини ўзида мужассамлаштирган бўлмоғлиги тўғрисида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** шифокор, дард, ахлоқ, одат, маданият, бемор, шахсий, ақлий ва ижтимоий ривожланиши, ихлос

**Аннотация:** В статье говорится о неразрывной связи человеческого фактора с нравами, привычками, культурой, дисциплиной, трудолюбием и самоотверженностью людей, а также о том, что человек претендующий на звание врача, воплощает в себе ряд человеческих качеств.

**Ключевые слова:** врач, боль, нравственность, привычка, культура, больной, личностное, психическое и социальное развитие, искренность.

Республикамиздасўнгийилларда жамият ҳаётининг барча соҳаларини демократлаштириш ва инсон парварлаштириш мақсадида таълим олдиға соғлом, фаол, масъулиятли ва мустақил шахсни шакллантириш вазифаси кўйилиб, зарур ҳуқуқий-меъёрий асослари яратилди.

Тиббиёт институти талабалари бўлажак шифокорлардир. Ҳозирги шароит социал-иқтисодий тараққиётни янада жадаллаштиришни талаб этмоқда. Бу эса инсон омилига бевосита боғлиқдир. Инсон омили кишиларнинг ахлоки, одати, маданияти, интизоми, меҳнатсеварлиги, фидойилиги каби фазилатлари билан узвий боғлиқдир. Шифокорлик касбини эгаллайман деган инсон бир қанча одамийлик фазилатларини ўзида мужассамлаштирган бўлмоғи лозимдир. Булар қандай фазилатлар? Шифокор аввалам бор ширинсухан, шафқатли, шижоатли инсон бўлмоғи керак. Бир фозилдан: «қайси фазилат энг яхши фазилат саналади? деб сўрасалар, у: «Кулар юзли, ширин сўзли, хушмуомалали бўлиш», деб жавоб берган экан. Беморга энг биринчи даво, бу ширин сўз. Унинг ўрнини беҳисоб доридармонлар боса олмайди. Ширин сўз бемор қайфиятини кўтаради, уни соғайишга бўлган ишончини оширади. Абу Али Ибн Сино: «Шоир тилни амри бўлганидек, табиб баданнинг шохидир. Табиб хастага ширин сўз, хуш хулқ, хушмуоммала билан ёндашмоғи, унинг дардини ўзининг дарди деб билмоғи керак» деган бўлса, мутафаккир шоир Алишер Навоий: «Шифокор мулойим сўзли ва бемор кўнглини кўтарувчи, андишали, хуш феъл бўлмоғи лозим» деган. У шижоатли, шафқатли табибни пайғамбар Исога ўхшатади. «Исонинг иши жонни дуо билан танга киритиш бўлса, табибнинг иши танадан чиқмоқчи бўлган жонни даво билан чиқармасликдир. Бунда шифокорнинг сўзи беморлар жонига ёқимлидир, юзи эса хаста кўнглида севимлидир» дейди. Буюк рухшунос олим В.М.Бехтерев ҳам: «Агар шифокор суҳбатидан кейин бемор ўзини енгил ҳис этмаса, бу шифокор эмас» деган эди. Шу боис бўлажак шифокор ўзининг нутқ, муомала, мулоқат санъатини, сўз бойлигини нафақат мутахассисликка оид, балки бадиий китобларни ҳам ўқиб ошириб бориши жоиз. Халқ оғзаки ижодини, мумтоз адабиётимизни, сўз санъатини муносиб қадрлайдиган шифокоргина ўз халқининг азиз ва эъзозли ҳакими даражасига кўтарилиши мумкин.

Тиббиёт ва маънавиятнинг ўзаро яқинлиги, бу икки соҳа ҳам инсоннинг ривожини ва камолотига қаратилганлиги буюк алломаларимиз Абу Бақр ар-Розий, Абу Али Ибн Сино, Амир Темир, Алишер Навоий, Ал Берунийлар мудом таъкидлаб келганлар. Хадиси шарифда: «Тангри кимники хуш кўрса, уни ҳамма учун керакли қилиб қўяди» дейилади. Зеро, шифокор ҳам ана шундай инсонлар тоифасига қиради. Шифокор бор экан, дард чекиниб, бемор соғаяди.

Инсон тафаккурини ўстирмасдан, унинг маънавий дунёсини бойитмасдан туриб, жамиятни қайта куриш ва ижтимоий-иқтисодий соҳада жадаллаштириш вазифаларини бажариш қийин кечади. Дунёда мутахассисликлар кўп. Шифокорлик касби шундай ноёб касбки, бу касбни эгаллайман деган инсон маънавиятли, ахлоқан баркомол бўлмоғи лозим.





Шифокор илмли, иродали, интизомли, инсонпарвар, иқтидорли, ҳар ишда илғор каби фазилатларни ўзида мужассамлаштирган бўлмоғи лозим. У ўқув даргоҳида олган билимини институтни битиргандан сўнг ҳам доимо билимини ошириб бориши даркор. Шифокор билимсиз бўлишга ҳақи йўқ. Билмаслик айб эмас, билишни истамаслик айбдир.

Саводсиз, билимсиз шифокорни Мир Алишер Навоий жаллоддан ҳам баттар, деб таъкидлайди, чунки жаллод гуноҳкорни ўлдиради, саводсиз шифокор эса, ўз хатти-харакати билан гуноҳсиз кишини ўлдириши мумкин. Бизнингча, бўлажак шифокорлар олий ўқув юрларида 3-баҳога ўқишларига ҳаққи йўқ. Чунки, инсон ўзи учун энг катта бойлик бўлган саломатлигини кимга топшириши керак? Шифокорнинг эл суяр ва қадрли мутахассис сифатида шаклланиши учун унда 3та хосият : «тиббий билим, тиббий маҳорат ва шифокор одоби» бўлиши керак.

Шифокор ўз касбига фидойи, фахм-фаросатли бўлмоғи лозим. Шифокорда бирон касалликни юқтириб олиш, ўзига зарар етиш хавфи бўлмаслиги керак . Бахтсизни кутқарай деб, ўзини сувга ташлаганлар, ўтга урганлар оз мунчами? Бировни дардини олай деб ,ўлим билан юзма –юз келган шифокорларнинг фидойиликлари ҳам ана шундай жасоратлардан қолишмайди. Шу боис ҳам, А.П.Чехов «Врачлик касби-жасорат, бу касб фидойиликни, қалб ва фикр софлигини талаб қилади» деган эди. Ҳар қандай шароитда ҳам бемор олдида туриш, ҳеч кимдан ва ҳеч қачон ўз ёрдамини аямаслик фидойи шифокор табиатига хос бўлиши керак. Буни бўлажак шифокор чуқур англаши керак.

Қадимги юнон табиблари томонидан тартибга солинган Гиппократ қасамёдида ҳам: «Шифокор юксак ахлоққа эга бўлиши, қалби- пок, виждони соф бўлиши керак» дейилган. Бўлажак шифокорлар Мусо ал-Хоразмий, Ахмад ал-Фаргоний, Имом ал-Бухорий, Абу Наср Фаробий, Абу Али Ибн Сино , Абу Райхон Беруний, Юсуф Хос Хожиб, Ахмад Яссавий каби бобокалонларимизнинг одоб-ахлоққа доир асарлари билан танишиб боришлари мақсадга мувофиқдир. Уларда ҳақиқий инсоний фазилатлар баён қилинган.

Шифокор камтар инсон бўлмоғи лозим. Камтарликни ўзига пеша қилган инсон ҳалқ хурматига сазовор бўлади, бахт-саодат унга доим ҳамроҳ бўлади. Шарқ, донишмандларидан бири: «Хар кишининг бўйнида 2 та занжир бўлур: булардан бири етти қат замин қарида. Кимки камтарлик, тўғрилиққа эътиқодли бўлса, юқоридаги занжир тортилуру. Бундай инсон ҳалқ олдида улуғ ва азиз бўлур. Кимда-ким кибрликни, ўғрилиқни, такаббурликни одат қилса, пастки занжир тортилуру ва ундай инсон эл орасида безътибор бўлур» деган экан.

Шифокор ораста, озодаликка риоя қиладиган инсон бўлиши керак. Беморни ўраб турган муҳит-«палата» шинам ва озода бўлмоғи лозим. Халқимиз орасида: «Палата девори ҳам беморни даволайди» деган гапни юриши ҳам бежиз эмас. Шифокор эғнидаги ҳалат, бошидаги қалпоқча озода, дазмонланган бўлиши керак. Шифокор ўз вазифасини бажараётган пайтда ҳеч қандай сунъийликка ва ясан-тусанга зеб бериш керак эмас, зеро бемор шифокордан зеб-зийнат кўришликни эмас, балки дардига шифо кутади. Эркак ҳам, аёл ҳам ўзига хос ва мос ораста кийингани маъқул. Кийиниш ҳам миллий мафкурамизнинг ажралмас бўлаги эканлигини унитишга ҳаққимиз йўқ. Бунга бўлажак шифокорлар катта эътибор беришлари керак. Шифокорнинг озодалиги, ораста кийимлари беморга қандай таъсир қилса, шифохона ичидаги ҳар - хил ёзувлар, алвонлар,хикматли сўзлар ҳам шундай таъсир қилишини унутмаслик лозим.

Шифокор инсонларга раҳмдил, меҳр-шафқатли бўлиши керак. Режа асосида иш кўришга одатланмоқлари лозим. Шифокор ҳар бир беморга ўзига яқин кишисидек меҳрибонлик кўрсатиши керак.

Ўзбекистон ҳалқ шоири, марҳум Муҳаммад Юсуф: «Шундай шифокорлар борки, туғишган акангдай қарайди сенга, тузалиб кетасан уялганингдан» деганда минг бора ҳақдир. Буни бўлажак шифокорлар эсда тутишлари лозим. Шифокор синчков ва зийрак инсон бўлмоғи керак. Шифокорга ихлос бор жойда, беморга шифо осон топилади. Бўлажак шифокорларга қўполлик, хасадгўйлик, такаббурлик, лоқайдлик, ёлғончилик, таъмагирлик каби ёмон хислатлар бутунлай ёт бўлмоғи лозим.

Хулоса қилиб шуни айтмоқ лозимки, том маънодаги шифокорни тайёрлаш узоқ вақтни ва кўпчилик меҳнатини талаб қилувчи оғир жараёндир. Бўлажак шифокорлар юқорида зикр этилган шифокорга хос ва ёт фазилатлар билан обдон танишиб, ўз фаолиятлари давомида ёт фазилатлардан,бирок бўлиб, хос фазилатларга ошно бўлсалар,халқимизнинг виждонли, суюқли халоскорларига айланишларига ишончимиз комил.



**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 июлдаги 577-сон қарори. Манба: <https://lex.uz/ru/docs/4417140>
2. Ш. М.Мирзиёев Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. 2017. Ўзбекистон. 448 бет.
3. К.Я.Бахронова Особенности психокоррекции нарушений поведения у детей и подростков. “Вестник интегративной психологии” г. Ярославль, 2017. №15. – С. 136-139.
4. К.Я.Бахронова Ўқувчиларда ҳуқ атвор бузилишлари “Bola va Zamon” Научно-популярный журнал детской и возрастной консультации. – Тошкент, 2019. №3. – Б. 58-61.
5. Умаров Б.М. Мулоқот ва шахслараро муносабатлар психологияси. Услубий қўлланма. Тошкент, 1998. –78 б.
6. Самойлов.А.Г. Психология личности. – М:МГУ,1990. –180 с.



## БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ШАРТЛАРИ ВА УНГА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР.

Тўраханов Умматали Давлатович,  
НамДУ педагогика ва психология  
кафедраси катта ўқитувчиси.

**Аннотация:** шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бўлажак ўқитувчиларни шз-шзини идентификацияга тайёрлаш жараёнининг аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда, тадқиқот доирасида тренинг машғулотларининг ўрнини назарий ва амалий таҳлил қилинди. Улар асосида ижтимоий-психологик тренингнинг мақсадга мувофиқ эканлигини методик жиҳатдан ёндашув учун асос эканлиги ёритилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий-перцептуал, субъект, эҳтиёж, ақлий ҳужум, мотивация, коммуник, профессионал, ижтимоий-психологик тренинг, ҳиссий – идрокий билиш, менинг касбим.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ САМОИДЕНТИФИКАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация:** Стоит отметить, что, учитывая важность процесса подготовки будущих учителей к идентификации, в рамках исследования был проведен теоретический и практический анализ места учебных занятий. На их основе уточняется, что социально-психологическая подготовка является основой методического подхода.

**Ключевые слова:** социально-перцептивный, предмет, потребность, мозговой штурм, мотивация, совершенствование, профессионал, социально-психологическая подготовка, эмоционально-перцептивное познание, моя профессия.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE SELF- IDENTIFICATION SYSTEM OF FUTURE TEACHERS

Annotation: It is worth noting that, given the importance of the process of preparing future teachers for identification, the study carried out a theoretical and practical analysis of the place of training. Based on them, it is clarified that socio-psychological training is the basis of the methodological approach.

Тадқиқот муаммолари бўйича илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, профессионал ва педагогика таълимнинг замонавий мазмуни ўқитувчи мутахассис шахсиятини шакллантиришнинг яхлит тузилмаси сифатида ўз-ўзини идентификация қилишнинг юқори даражасини таъминлайдиган ўқув машғулотлари ва ижтимоий-психологик технологиялари тизимига эҳтиёж сезади.

Айрим олимлар жамоавий, гуруҳ, талаба ва ўқитувчи тенг ҳуқуқли таълим субъектлари бўлган ҳамкорликда ўқитишда ижтимоий-психологик қўллаб-қувватлашнинг аҳамияти ва зарурлиги, талабанинг индивидуал-психологик салоҳиятини, унинг адаптив имкониятларини рўёбга чиқариш, тегишли ривожланишга бўлган эҳтиёжни қондириш, ижтимоий-профессионал нуктаи назарларни шакллантириш, мотивлар, қиймат йўналишларини шакллантириш билан боғлиқ бўлган жараёнларни замонавий талабанинг ўз-ўзини идентификациялашни таъминлашда асосий шартлардан бири деб ҳисоблайдилар. Бу бўлажак ўқитувчи мунозаралар – “ақлий ҳужум” ва бошқаларни амалиётга татбиқ этишни билишлари таълим жараёнларида ўзаро ҳамкорлик таълимига айлантириши асосланади. Бу жараёнлар бўлгуси мутахассисларни тайёрлаш учун диалогик маконни яратиш – алоқа аралашув тамойил ва омилларини ўзлаштириш, ўз ҳукмларини тасдиқлай олиш, суҳбатдошнинг ҳаракатларини таҳлил қилиш ва прогноз қилиш, фаол тинглаш техникасини ўрганиш, саволлар бериш, ҳиссий тангликни тартибга солиш каби шахслараро мулоқот кўникмаларини шакллантиришдаги талаб этиладиган шартлардандир. Бу шартдаги таълим усуллари, унинг ҳар қандай шаклини қўллаш ижтимоий-перцептуал материалларни



тахлил қилиш билан яқунланади. Бирок, бундан ташқари, тажриба ишларидаги талабаларни ўқитишдаги инновацион ўйин технологиялари улардан кўра самарали муваффақиятларга олиб келиши аниқлади. Олимларнинг таъкидлашича, бундай технологиялар бир томондан шахсий ривожланишни, профессионал билимларни эгаллашни, профессионал имиджга нисбатан ўз позициясини билиш, шахсий тажрибани тўплаш ва бошқа томондан амалий йўналтирилган таълим усуллариининг мураккаблигини кўрсатади [11].

Шундай қилиб, тадқиқотчилар томонидан бўлғуси ўқитувчиларни тайёрлаш учун шарт-шароитларни асослаш қуйидаги асосий мезонларга асосланиб, ўз-ўзини идентификация қилиш жараёнига комплекс ёндашувни аниқлашга ёрдам берди:

- ўз фаолиятининг кенг ижтимоий нуқтаи назардан идрокнинг яхлитлиги, шу жумладан «мен» профессионал имиджини шакллантириш;

- ўқитувчининг танланган касбига ижобий муносабатни, яъни касбнинг имиджини шакллантириш;

- касбий қизиқиш ва мотивация тизимида, яъни таълим ва касбий мотивацияни шакллантириш;

- касбий билимларнинг шахсий (маънавий-ахлоқий) ривожланиш ва ўз касбий ўсишининг аҳамиятини тушуниш (касбий йўналишни шакллантириш);

- бўлғуси ўқитувчи сифатида профессионаликни – ўз касбининг устаси бўлишини кучайтириш.

Юқоридаги мезонларни амалга оширишда бўлғуси ўқитувчининг шахсий ривожланиши учун ижтимоий-психологик тренинг машғулотилари тизими ишлаб чиқилиши ва уларнинг натижасидаги таъсирлар нуқтаи назарига асосланиб қўлланилиши талаб этилади. Шу билан бирга, аксарият олимлар бундай усулларга асосланган таълимни замонавий таълимда талабалардан бўлғуси етук, комил ҳамда профессионал ўқитувчилар тайёрлаш ва шахсий ривожланиш тизимининг ажралмас қисми сифатида белгилайдилар.

Мазкур турдаги таълим жараёнлари одатда иштирок этиш – қатнашувчи ва тингловчи тамойилига асосланади. Бундан шу нарса англашиладики, бутун жамоа интеллектуал ва амалий фаолиятнинг билим ва усуллариини эгаллашга қаратилган ташкилий тайёргарлик жараёнининг иштирокчилари ҳисобланади. Бундай таълим натижасида талаба гуруҳ – жамоаси ўзаро бир-бири билан дунёқарашлари уйғун ҳолда, мотивацион таъсирлар остида ҳамжиҳатлик билан шахсий ва касбий ривожланиш йўналишида ҳаракат қиладилар [15].

И.В.Вачковнинг фикрига кўра, ижтимоий-психологик тренинг ўз-ўзини англаш ва шахсий ривожланиш кўникмаларини шакллантириш учун ишлатиладиган амалий психологиянинг фаол усуллариининг тўпламидир. Шу билан бирга, бундай таълим усуллари (асабийлик) неврозни даволаш учун клиник психотерапия доирасида ва ўз-ўзини ривожлантиришга ёрдам бериш учун руҳий соғлом одамлар билан ишлашда ҳам амалий, психология нуқтаи назаридан, қўлланилиши мумкин. Тренинг – шахсий уйғунлаштириш мақсадида танланган мавзудаги ижтимоий-психологик ҳодисаларда мақсадли ўзгаришларнинг кўп функционал усулидир.

Амалиёт шуни кўрсатадики, касб-хунарга ўқитиш йўналиши бўйича тренинг машғулотилари фаолият мавзусининг шахсий салоҳиятини бойитади ва одатда қуйидаги асосий вазифаларни ҳал қилишга йўналтирилади:

- муҳим ҳаётий вазиятларни, бўлғуси профессионал фаолиятни ўрганиш ва кенгайтириш;
- ўзаро таъсир ўтказиш, акс эттириш, шахсий ривожланиш, таълим ва касбий мотивация учун мотивацияни шакллантириш;

- шахсий фазилатларни такомиллаштириш;

- келажакда ўқитувчи учун зарур бўлган профессионал аҳамиятга эга фазилатларни ривожлантириш [41].

В.Б.Волков қарашлари бўйича, тренинг технологиялари жараён иштирокчиларининг шахслараро ўзаро ҳамкорлигига ёрдам беради. Олим бир тажриба ўрганиш доирасида ҳамкорлик, ўзаро ишонч ва ҳоказоларни розиликнинг бир кўриниши сифатида таърифлайди. Унинг ўзаро конструктив табиати туфайли таълим фаолияти субъектларнинг шахсий фазилатларини ўсишини, ўзаро кашфиётлар, баҳс-мунозара муаммоларни шаклланишига туртки бўлишини эътироф этади [45].

Шундай қилиб, бўлажак ўқитувчиларни идентификацияга тайёрлаш жараёнининг аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда, тадқиқот доирасида тренинг машғулотиларининг ўрнини



назарий ва амалий таҳлил қилинди. Улар асосида ижтимоий-психологик тренингнинг мақсадга мувофиқ қуйидаги асосий вазифаларини таъкидлаш мумкин:

- ўз-ўзини англаш ва шахснинг ўз-ўзини ривожлантириш кўникмаларини шакллантириш;
- шахслараро ҳамкорлик кўникмаларига тайёрлаш;
- ижтимоий мослашувни шакллантириш ва ривожлантириш;
- шахснинг шахсий-профессионал фазилатларини ривожлантириш;
- ижобий таълим ва касбий мотивацияни шакллантириш;
- касб-хунарга йўналтирилган интеграция.

диссертациянинг аввалги параграфларида таъкидланганидек, бир қатор тадқиқотчиларнинг фикрича, ўз-ўзини аниқлаш механизми – шахснинг ва унинг ўз-ўзини англашини шакллантириш (яъни шахснинг ўз вазифаларини ўз ваколати билан бошқаларнинг хатти-ҳаракати билан ўз хатти-ҳаракати йўналишларини аниқлаш) асосида муайян жамиятда ўз тутган ўрнини жамият функциялари билан таққослай олиш кўникмаларини шакллантиришдир. Психологик таълим нуқтаи назаридан эса ўз-ўзини англаш тушунчасини шахс уч томонининг бирлиги сифатида қаралади:

- 1) билим, яъни ўз-ўзини билиш;
- 2) ҳиссий – идрокий билиш, яъни ўзига нисбатан муносабат;
- 3) ўз туйғуларини тартибга солиш, яъни ўз хатти-ҳаракатларини бошқариш.

Инсоннинг хатти-ҳаракати унинг ўзи ҳақидаги ғоялари, яъни “мен” тасвири келажакда ўзини қандай кўришни истаётгани билан узвий боғлиқ. Шахснинг ўзлигини англашнинг психологик характеристикаси шуки, мавжуд ва хаёлий ҳақиқатни онгли равишда англаш, ўз ақлий ва хулқ-атворини назорат қилиш, уларни бошқариш, атрофдаги дунёни тасаввур қилиш ва идрок этиш қобилиятига эга бўлган рефлексив механизмлар асосида билим берувчи жараён сифатида ўзини ҳис қилишни ўз ичига олади [4, 26, 160].

Л.Г.Сударчикова бўлғуси ўқитувчиларнинг ўзлигини англаш муаммосини ўрганиб чиқди, ижодий, тадқиқот ва лойиҳа вазифаларини бажариш асосида психологик таъсирларни амалга оширишнинг тегишли қуйидаги тизимини таклиф қилади:

биринчи блок – “мен” тасвирини яратиш, яъни ўз ўзига хослигининг мазмуни ва қадриятларини англаш;

иккинчи блок – бу касбнинг образини яратиш, яъни касбнинг мазмунини тушуниш;

учинчи блок – касбда “мен”, яъни “мен” тасвирининг нисбати ва касбнинг образи;

тўртинчи блок – “менинг касбим”, яъни. касб-хунарсиз тасвирининг нисбати ва “мен” тасвири.

Тадқиқотчининг фикрига кўра, бўлғуси мутахассиснинг муваффақиятли шахсий ривожланиши, касбий фаолиятни амалга ошириш ва ўқувчининг ижодий имкониятлари доимо ўз-ўзини таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилиши керак. Ушбу қобилиятнинг ҳаракатлантирувчи механизми шахснинг ҳиссий жиҳатларини баҳолаш ва гуруҳ динамикаси даражаси билан ёрдамчи усуллар орқали профессионал режаларни ва умуман ўз рефлексив билимларни таққослаб, мустаҳкамлашдир [67, 94, 116 ва бошқалар]. Шу билан бирга, гуруҳнинг ўзаро таъсирини аниқлаш ва назорат қилиш жаомавий таълимнинг самарадорлиги учун муҳим омилдир. Шу мақсадда, оғзаки бўлмаган шовқин усулларини қўллаш ўринли бўлади, уларнинг асосий функциялари гуруҳ аъзоларининг яқинлашуви, ўзаро билиш, оғзаки нутқ қилиш қийин бўлган шахсий психиканинг бундай намоён бўлишини тушунтириш ҳисобланади. Ушбу усулларнинг асослари психогимнастик машқдир. Бу йўналиш доирасида кўплаб олимлар психогимнастикани мустақил тузатиш усули сифатида қўллашни таклиф қилишади. Муаллифлар жамоавий ўрганиш машқлари мажмуасини таклиф қилишади. Бундай фаолиятлар ҳис-туйғуларни ифодалашни, юз ифодалари ва ҳаракатлар ёрдамида муаммоларни бошдан кечиришни ўз ичига олади. Тадқиқотчилар шуни таъкидлайдиларки, шахсни билиш ва тузатиш психогимнастиканинг асосий вазифасидир [120, 209 ва бошқалар].

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, ҳис-туйғулар дунёси ҳақида билим олиш ва уларнинг шахсий тартибга солиш қобилиятларини шакллантириш бўлғуси мутахассисни шакллантириш учун муҳимдир. Бу жиҳатдан кўплаб олимлар руҳий функцияларни ривожлантиришга қаратилган гуруҳ иши учун этюдлар ва ўйинларнинг тизимли тўпламларини тақдим этадилар ва турли элементларини ва ҳиссиётларни ифода этиш қобилиятини ўрганадилар. Психогимнастик машқлар оғзаки бўлмаган ифодага асосланган



бўлиб, унинг асосий мақсади жисмоний тўсиқларни ва гуруҳ таълимнинг ҳар бир аъзосининг психологик ҳимоя механизмларини [66, 71, 100] олиб ташлашдир.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, замонавий олий таълим муассасаси шароитида ҳар қандай ижтимоий-психологик ҳодиса ривожлантирилишининг мақсадли воситаларини тайёрлаш ва амалга ошириш жараёнида шахснинг ажралмас тузилишини ва бўлғуси мутахассиснинг профессионал таркибий қисмини шакллантиришни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу муҳим ҳолат бўлғуси ўқитувчининг ўз-ўзини идентификация қилишни ривожлантириш жараёнида профессионал ваторйўналтирилган соҳаларни уйғунлаштиришга бўлган эҳтиёжни олдиндан белгилаб беради. Шу билан бирга, кўплаб тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, бундай мураккаб вазифа турли хил ижтимоий-психологик технологияларни самарали равишда ҳал қилиши мумкин. Улар орасида ижтимоий-психологик тренинг таълим тизимининг ажралмас таркибий қисми сифатида таълим олувчининг шаклланишининг психологик таъминлаш ва унинг шахсий ривожланиши учун жуда аҳамиятлидир. Психологик ва педагогик амалиёт шуни кўрсатадики, самарали ижтимоий-психологик тренинг мақсадли ишларнинг жамоавий шакли бўлиб, проектив, муаммоли таълим шакллари, ўйин технологиялари, симуляция қилинган ҳаётий вазиятлар, етакчи ва тарбиячи ўртасидаги ижодий ҳамкорлик, талабаларнинг шахсий ривожланиш учун асосий восита сифатида акс этиши, бўлғуси касб, мулоқотга бўлган қизиқишини ошириш учун машқлар мажмуидир. Уни амалга ошириш турли шарт-шароитларни таъминлаш иштирокчиларнинг ижтимоий ўзаро таъсирининг ижобий даражасини, уларнинг иш қобилиятини, тегишли мотивацияни, тизимли ўз-ўзини ривожлантиришни, ташвиш даражасини пасайтиришни ва шахсий йўналтирилган йўналишни ўз ичига олади ва улар билан узвий боғлиқдир. Тренинг ўз моҳиятига кўра, ижтимоий-психологик тренинг ўзаро ва ихтиёрий иштирок этиш тамойилига асосланади, яъни. жамоа сифатида ўқитилганларнинг барчаси ташкилий ва мақсадли тайёргарлик жараёнининг бевосита иштирокчиси ҳисобланади. Бундай иш натижасида талаба шахсий ва касбий ривожланиш йўналишида тўғри мулоқот асосида гуруҳ билан ўзаро таъсирлар асосида ҳаракат қилади ва шу билан ўз-ўзини идентификация қилишни ривожлантиради.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Muxamedova D.G', Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik,- Toshkent, “Mumtoz so'z” 2018.-287 b.
2. Расулов А.И. Психодиагностика: ўқув-методик кўл. / А.И. Расулов; ЎзР ОЎМТВ, М.Улуғбек номидаги ЎзМУ. – Т.: Mumtoz so'z, 2010. – 152 б.
3. Антонова Н.В. Проблема личностной идентификации. // Вопросы психологии. 2010. №4. - С. 120-131.
4. Балич Н.Л. Социальная идентичность: теоретико-методологические основания социологического анализа / Н.Л. Балич // Социологический альманах - 2013. - №4. - С. 214-220.



**EKSPRESSIV ALALIYALI BOLALARDAGI NUTQIY KO'NIKMALARNI  
SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI**

**Abdullayeva S.N., TDPU doktoranti**

Telefon: +998998960503

sevara\_abdullayeva1993@mail.ru

**Annotatsiya:** Adabiyotlarda alaliya muammosi yuzasidan berilgan ma'lumotlar ko'p qirrali va qarama-qarshidir. Nutq murakkab funksional tizim sifatida dinamik lokalizatsiyaga ega va bosh miya tuzilishining turli sohalarini nutqiy faoliyatga jalb etadi. Alalik bolalar uchun ekspressiv nutqning sust rivojlanishigina emas, balki uning rivojlanishini patologik kechishi ham xosdir. Alaliyaning tarqalganligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yo'q. Ma'lumotlarga ko'ra, alaliya maktabgacha yoshdagi bolalarning bir foizi, maktab yoshidagi bolalarning 0,6 — 0,2% foizni tashkil etadi. O'rtacha hisobda, alaliya aholining 0,1 foizida kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Alaliya, nutq buzilishlari, ekspressiv nutq, motor alaliya, logopediya, lug'at, ko'rgazmali qurollar, psixik jarayonlar, dastlabki rivojlanish, mayda motorikasi.

Alaliya — bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig'i nutq doirasining organik jarohatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir. "Alaliya" atamasi (grekcha a — yo'q, lotincha lalio — nutq) tarjimasida nutqning yo'qligi, nutqsizlik holati — nutq buzilishlariga doir adabiyotlarda qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Maxsus adabiyotlarda "alaliya" atamasidan tashqari, shu nutq nuqsonini anglatuvchi quyidagi atamalardan foydalanganlar: "Tug'ma afaziya", "Ontogenetik afaziya", "Rivojlanish afaziyasi", "Disfaziya", "Nutqiy rivojlanishi sustlashuvi", "Nutqning konstitutsional orqada qolishi", "Tilni egallashdagi kamchiliklar" va h.k. Alaliyaning tarqalganligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yo'q. Ma'lumotlarga ko'ra, alaliya maktabgacha yoshdagi bolalarning bir foizi, maktab yoshidagi bolalarning 0,6 — 0,2% foizni tashkil etadi. O'rtacha hisobda, alaliya aholining 0,1 foizida kuzatiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, alaliya o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan 2 marta ko'p uchraydi. Adabiyotlarda alaliya muammosi yuzasidan berilgan ma'lumotlar ko'p qirrali va qarama-qarshidir. Nutq murakkab funksional tizim sifatida dinamik lokalizatsiyaga ega va bosh miya tuzilishining turli sohalarini nutqiy faoliyatga jalb etadi. Alalik bolalar uchun ekspressiv nutqning sust rivojlanishigina emas, balki uning rivojlanishini patologik kechishi ham xosdir. Motor alaliya — bu markaziy xarakterdagi organik buzilishlar natijasi hisoblanib, nosog'lom nevrologik ko'rinish nutqning rivojlanish borasida jiddiy orqada qolishga olib keladi. Motor alaliyada nutq buzilishlari sistemali xarakterda bo'lib, uning barcha tarkibiy qismlari uchun xos: fonetik-fonem atik va leksik-grammatik. Ustunlik qiluvchi belgilari bo'yicha bolalarni fonetiko-fonematik rivojlanmaganlik ustunlik qiluvchi guruhga (ular kamchilik) va leksikgrammatik rivojlanmaganlik ustun bo'luvchi guruhlarga bo'lish mumkin. Taxminlarga ko'ra, birinchi guruh — dominant yarimshar po'stlog'ining markaziy motor sohalaridagi pasti bo'limlarning dastlabki jarohatlanishlariga asoslanadi. Bu yerda artikulyatsion harakatlarni bajarishda yoki umumiy muskulaturada (boshqa harakatlarni bajarishda) kelib chiquvchi mushaklar, paylardan guruh miya po'stlog'i motor sohasining oldingi bo'limlari jarohatlanishiga asoslanadi. Alaliyali bolalarda talaffuz tizimi rivojlanishi sifat va miqdori jihatidan o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Bu barcha bolalarda u yoki bu darajada va nutqiy rivojlanishning har bir bosqichida namoyon bo'ladi. Nutqning fonetik rivojlanishi lug'at boyligining rivojlanish darajasiga bogliq. Bir qator hollarda tovushlar lug'at rivojlanishi ta'siri ostida spontan hosil bo'ladi, biroq ularni so'z tarkibida qo'llash ma'lum miqdordagi qiyinchiliklar bilan bogliq. Alohida tovushlarni ular tomonidan to'g'ri talaffuzi sharoitida ham bola tom onidan so'zning tovush tarkibini ko'chirib yozishdagi ko'p sonli xatolar bunga guvohlik beradi. Ayrim hollarda lug'atning kengayishi yangi tovushlarni hosil bo'lishiga olib kelsa, ayrim hollarda esa avval alohida artikulyatsiyalar vujudga keladi, so'ng ular so'zlarda mustahkamlanadi. Motor alaliyali bolalarda lug'at boyligi sekin, nutqiy amaliyotda noto'g'ri foydalanilgan holda rivojlanadi. Leksik-semantik vositalarning kam bag'alligi, o'xshashligi, yaqinligi, bir-biriga zidligi bo'yicha turli xil almashtirishlarga olib keladi (piyolaidish). Ko'pincha predmetlarning tashqi belgilari bo'yicha almashtirishlar kuzatilsa, kamroq funksiyalariga asoslanganlar kuzatiladi (ichki belgilar). So'zlarni ahamiyati bo'yicha almashtirish bola nutqi rivojlanishining birmuncha yuqori darajasini xarakterlaydi. Y.K. Vorobyovanning



ko'rsatishicha, ahamiyatning diffuzligi va almashtirish ko'pincha otlarga nisbatan fe'llarni qo'llashda kuzatiladi. Bolalar sinonim , antonim , umumlashtiruvchi so'zlardan foydalana olmaydilar. Ularda sifat, ravish zaxiralari bir xilda va juda tor. Nutq rivojlanishining barcha bosqichlarida lug'atni faollashtirish qiyinchiligi, bolalarning lug'at zaxirasidan so'zlarni to'g'ri tanlay olmasligi va to'g'ri qo'llay olmasligi aniqlanadi. Bunday bolalarning lug'at boyligi kundalik-turmush mavzulari bilan cheklanib, bola so'zni ma'nosini tushuntirib bera olmaydi, so'z hosil qilish vositalaridan foydalana olmaydi Bolalarda oliy psixik funksiyalarida xotira, diqqat, tafakkur va. h.k. yetishmovchiliklar kuzatiladi. Alaliya — tibbiy psixologik pedagogik muammo. Logopediya sohasiga, bola shaxsi va nutq rivojlanishiga yo'naltirilgan korreksion ta'sir usullari va tamoyillarini aniqlash kiradi. Mashg'ulotlarning samaradorligi ko'rgazmali qurollarning mavjudligi va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liq. Olib borilayotgan ishning bosqichlaridan qat'i nazar, ta'sir butun nutq tizimiga qaratiladi: lug'atini aniqlash va boyitish, frazali va bog'langan nutqni shakllantirish, tovush talaffuzini korreksiyalash. Shuningdek, har bir bosqichning maxsus vazifalari va o'ziga xos ish m azm uni aniqlanadi. Birinchi bosqichda olib borilayotgan ishlar quyidagilar sanaladi: nutqiy faollikni tarbiyalash, passiv va faol lug'atni shakllantirish. Dialog, sodda, katta bo'lmagan hikoya ustida ish olib boriladi. Nutqiy faoliyatning psixofiziologik asoslari va vaziyatli m uloqotning birlamchi ko'nikmalari shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda lug'at va jumla tuzilishini m urakkablashtirish asosida frazali nutqi shakllantiriladi. Gaplardan foydalanish ularni grammatik jihozlash, dialog va hikoya ustida ish olib boriladi. Uchinchi bosqichda mustaqil nutqni shakllantirish ishlari olib boriladi. Barcha bosqichlarda nutqiy faoliyatning ham m a tom onlari shakllantiriladi. Bolalar amaliy m ashqlar yordamida so'zlarni gapda bog'liqligini tushunishga va ularni nutqida to'g'ri qo'llashga o'rganadilar. Ko'rgazmali vaziyatlarda bolalar tomonidan buyum, harakatlar ajratib olinadi va shu asosida so'z shakllari taqqoslanadi, turli yangi gaplar tuziladi. Lug'at bilan ishlashning turli usullaridan foydalaniladi: nutqiy va asl holidagi predmetlar, harakatlar, rasmlar, vaziyatlarni namoyishi. Lug'at bilan ishlashning ko'rinishiari: predmetlarni harakatlarga mos tarzda tanlash (kim yuguryapti, uchayapti), butun qismlarini nomlash (eshik, chiroq, g'ildirak). Bir o'zakli so'zlarni tanlash (bog'-bog'bon), ta'rif bo'yicha predmetlarni topish antonim, sinonimlarni, kichraytirish-erkalash so'zlar tarkibini tanlash. Mavzular o'yinchoqlar, mevalar, sabzavotlar va h. k. lug'at egallash bilan birgalikda so'zning ma'lum grammatik shaklidan foydalanishni o'rgatib boriladi

#### Adabiyotlar :

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jam'iyati nashriyoti, 2007. —560 b.
2. ВЫГОТСКИЙ Л. С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 2. Проблемы общей психологии / Под ред. В. В. Давыдова. — М.: Педагогика, 1982. — 504 с, ил. — (Акад. пед. наук СССР).
3. Бадалян Л.О. Детская неврология : учеб. пособие / Л.О.Бадалян. — 4-е изд. — М. : МЕДпрессинформ, 2016. — 608 с. : ил. ISBN 978-5-00030-012-1
4. Богданова Т.Г., Корнилова Т.В. Диагностика познавательной сферы ребенка. - М., 1999.- 39с.
5. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М. Если Ваш ребенок отстает в развитии. — М.: Медицина, 1993. 11б.
6. Миронова С.А. Развитие речидошкольников на логопедических занятиях. — М.: Просвещение, 1991. 208 б.





“CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI”

**Baboyev A'lomirza To'lamirzayevich**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i

+998902985110

A'lomirza @bk.ru

**Anatatsiya:** Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida vatanga sadoqat tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak zahiradagi ofitserlar hamda harbiy ta'lim rahbarlariga harbiy xizmatga chaqiriluvchilar va harbiy qism shaxsiy tarkibi faoliyatida zarur bo'ladigan harbiy psixologiya va pedagogika qoidalarini, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning amalga oshirishda iborat.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tayyorgarlik, ko'nikma, malaka.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun harbiy-vatanparvarlik ta'limi asos bo'lib xizmat qiladi. Harbiy-vatanparvarlik ta'limining maqsadi va mazmuni harbiy sohaga tegishli bilimlarni o'rgatishdan iborat. Bunday ta'lim jarayoni tegishli harbiy mutaxassisliklar bo'yicha maxsus o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq tashkil qilinadigan nazariy, amaliy va boshqa turdagi mashg'ulotlar, o'quv mashqlarini o'z ichiga oladi.

Harbiy ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ta'limi jarayonida yuqorida aytilgan tarbiya bilan ta'limning birligi tamoyili eng yaqqol ifoda etilishi ma'lum. Bunga ushbu ta'lim muassasalarida qat'iy harbiy intizomning joriy etilganligi asos bo'ladi. Bunday intizom natijasida ta'lim oluvchilarda mustahkam axloqiy me'yorlar shakllanib, hayotiy qoidalarga aylanib boradi.

Harbiy pedagogika fani harbiy-vatanparvarlik ta'limini amalga oshirishda harbiy ta'lim muassasalarida harbiy ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik va metodik hamda harbiy o'quv fanlarini o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullanadi. Shunga ko'ra, harbiy pedagogika fani tegishlicha alohida yo'nalishlar bo'yicha xususiy harbiy pedagogika va didaktika hamda harbiy o'quv fanlarini o'qitish metodikasi fanlarining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalarga quyidagilar kiradi:

bugungi zamonda dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotganligini, xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo'lgan, yot va buzg'unchi g'oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo'llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchayganligini, ayniksa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotganligini hisobga olish;

bunday sharoitda harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo'lgan yoshdagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarning sifati va samaradorligini yuksaltirib borish, bu ishlarning chuqur va boy mazmunli bo'lishini, ta'sirchanligini ta'minlash choralarini ko'rish;

ta'lim muassasalari, harbiy va mehnat jamoalarida, mahallalarda yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish;

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, dolzarb vazifalarni amalga oshirishda Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda boshqa jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san'at va sport sohalarining ko'zga ko'ringan namoyandalari bilan hamkorlikda ish olib borish;

ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, ilm-fan yutuqlari va Internetning milliy tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalanish;

yoshlar va fuqarolar orasida Vatanni himoya qilish g'oyalarni targ'ib qilish, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga daxldor barcha tashkilotlar va o'quv muassasalarida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ommaviy ishlarning yanada yuqori darajada olib borilishini ta'minlash.

Shularni hisobga olgan holda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimida quyidagi yo'nalishlar



bo‘yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur:

1. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning ota-onalari, mahalliy davlat organlari, jamoatchilik vakillari va chaqiriqqacha yoshlar ishtirokida ularni o‘quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish maqsadida “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazish.

2. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, o‘qish davomida o‘zining namunali xulqi bilan safdoshlari orasida o‘rnak bo‘lgan hamda o‘tkazilgan sport musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan o‘quvchilarni taqdirlash.

3. O‘quv muassasalari o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan turli ta’lim-tarbiyaviy hamda bayram tadbirlarida milliy armiyamizda xizmat qilayotgan tajribali, ilg‘or harbiy xizmatchilarning ma’ruzachi sifatida ishtirokini ta’minlash.

4. O‘quv muassasalari o‘quvchilarining otaliq harbiy qismlarga sayohatlarini amalga oshirish, tashkilotda Qurolli Kuchlar tizimida o‘tkazilgan tanlovlarning g‘oliblari bo‘lgan milliy armiyamiz shaxsiy tarkibidagi zobit va serjantlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.

5. O‘quv muassasalari kutubxonalari va ma’naviyat xonalarining kitob jamg‘armalarini vatanparvarlik tarbiyasi va ta’limi yo‘nalishidagi yangi adabiyotlar va ko‘rgazmali vositalar bilan boyitib borish.

6. Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishidagi mavzularni yoritib borish va boshqalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevralda 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.

3. Inoyatov I.Yu., Abilov M.X. Vatan himoyasi – muqaddas burch. – T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2001. – 81-93-b.

4. Sh.N.Abduraxmonov Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi o‘quv qo‘llanma Kamolot nashriyoti 2023. – 98-101-b



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI VOLA AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING O'RNI

Jo'rayeva Shahzodaxon Mahamadjonovna

Namangan davlat Uneversiteti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)

Magistratura 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Maqolada hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasiga ota-ona va oilaning ta'siri qay darajada ekanligi, ota-onaning farzand oldidagi burch va majburiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari oilaning islom dinidagi, jamiyatdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, ota-ona, farzand, islom dinida tarbiya, Oila huquqlari, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya,

**Аннотация**

В статье описывается воспитание детей, семейные отношения, степень влияния родителей и семьи на воспитание детей, обязанности и ответственность родителей перед ребенком, что стало одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. Также было подчеркнута значение семьи в исламе.

**Ключевые слова:** Семья, общество, родители, дети, воспитание в исламской религии, права семьи в Конституции, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, нравственное воспитание, социальное воспитание.

**Annotation**

The article describes the upbringing of children, family relations, the degree of influence of parents and the family on the upbringing of children, the duties and responsibilities of parents to the child, which has become one of the most pressing issues today. The importance of the family in Islam was also emphasized.

**Keywords:** Family, society, parents, children, education in the Islamic religion, family rights in the Constitution, aesthetic education, labor education, moral education, social education

Oila - biz sevadigan va seviladigan makon, biz intiq kutiladigan qaynoq taftlar, mehrlari va iliq nigohli, jonimizning parchalari jam bo'lgan qadrdon maskan! Barchamizga ma'lumki, oila bu jamiyatning bir bo'lagi. Kishi dunyoga kelibdiki u oilada tug'ilib-o'sib, rivojlanadi. Inson oilasida tinch hotirjam yashaydi. Oila deb qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini iqtisodiy ta'minlash va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iborat.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Shu jumladan ta'kidlash joizki, O'zbekiston prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev oila masalasiga alohida va yuksak darajada e'tibor qaratadilar. Bunga isbot tariqasida Prezidentimizning quyidagi so'zlarini keltirishimiz mumkin: „Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!“, - deya ta'kidlagan. O'zbekiston Prezidenti oila va baxt haqidagi fikrlarini o'rtoqlashdi. Uning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu – oila. „Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiyaga, oilaviy muhitga, oiladagi halollikka munosabatga alohida e'tibor bermasa, hech qachon ijobiy natija bo'lmaydi. Shuning uchun farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman“, - dedi u.

Ma'lumki islom dinining muqaddas kitobi „Qur'oni Karim“ va „Hadisi Sharif“ da oila, oilaviy



munosabatlarga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. Oila qurish balog'atga yetgan yigit qiz uchun hayotiy zaruriyat bo'lib, ularning o'zaro axdu-paymon asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yoshlarni oila qurishi haqida alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib unga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi<sup>1</sup>. Bundan tashqari diniy idoralar ham yoshlarni o'z vaqtida turmush qurishlari tarafdori. Shu bilan birga erta oila qurishning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, oila qurgan yigit va qizga oila vazifalari, farzand tarbiyasi zimmlariga tushadi. Eng yaxshi tomoni ularni turli xil yomon yo'llarga kirib ketishdan saqlab qolinadi. Zinoga yo'l qo'ymaydilar. Turmush qurishga ertaroq tayyorlana boshlaydilar.

Oila tarbiya ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir gaplari yodimga keldi

„Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, donova albatta baxtli bo'lishlari shart<sup>2</sup>“. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Ota-onaning asosiy vazifasi oilada bolani faqat iqtisodiy tomondan ta'minlash emas. Balki farzandni aqliy, ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik tomondan tarbiyalash muhimdir. Eng birinchi navbatda farzandni diniy tomondan tarbiyalamoq lozim, unga eng avvalo kichikligidan Allohni tanitish lozim. Nima halol-u nima xaromligini, rostgo'ylikni, birovni haqqiga hiyonat qilmaslikni, qalbida hamisha iymoni e'tiqodi bo'lishi haqida tushunchalarni berish ham ota-onaning vazifalariga kiradi. Shulardan biri bu oila tarbiyasida bolani aqliy jihatdan tarbiyalash. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlardan iborat.

Bizga oila pedagogikasi hamda oila psixologiyasi darsliklaridan ma'lumki, oilada tarbiyaning axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi bir nechta turlari mavjud. Ularga qisqacha to'xtalib o'tsak. Axloqiy tarbiya-oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oiladagi axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash kabi ijobiy hislatlarni shakllantirishdan iborat. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarni ijobiy hal etishni nazarda tutadi. Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning ro'li kattadir. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamolot darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab, oila haqida chuqur tushuncha berish lozim. Buning „vatan ostonadan boshlanadi“ deganidek, eng avvalo, oila a'zolaridan tortib to oliy ta'limgacha buning uchun teng harakat qilmoq lozim. Maktab, kollejlitsey, oliy ta'limlarda oila psixologiyasi va oila pedagogikasi fanlari qo'yilib, uni maxsus shu sohani tamomlab kelgan o'qituvchilari o'tishlari kerak. Oila o'zi nima? Oiladagi har bir shaxsning oiladagi vazifalari? Oila tinch totuv va mustahkam yashashi uchun nima qilish lozim? Kabi savollarga yoshlarga javob berish kerak. Faqat ta'lim muassasalari, oila bilan cheklanibgina qolmay, bu bilan xattoki mahalla muassasasi tashkilotidagi shaxslar jiddiyroq yo'ndashishlari va xattoki mahallalarda oila markazini tashkillashtirilishi, u yerda psixolog ham bo'lishi yanada maqsadga

1 15-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdagi O'RQ-558-sonli qonuni-tahririda – qonun hujjatlari milliy bazasi.

2 I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. „Ma'naviyat“ 2008



muvofig bo'lar edi. Bularni barchasini tashkillashtirishdan maqsad faqat bitta: tinch-totuv, aqlan, ma'nau, jismonan va eng asosiysi ijtimoiy psixologik tomondan rivojlangan oila muhitini yaratish. Shu sabab yuqorida sanab o'tilgan ishlarni bajaradigan shaxslar oldilaridagi maqsadni aniq qo'yib olgan holda ishlariga vijdonan sidqidillik bilan yo'ndashib ish ko'rmoqliklari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oila psixologiyasi Toshkent-2010. G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov
2. Oila pedagogikasi O.Hasanboyeva
3. Oila pedagogikasi A.Munavvarov
4. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.2008

Internet saytlari

1. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)
2. <https://www.xabar.uz>
3. [muhlis.uz](http://muhlis.uz)



## THE ROLE OF MOTIVATION IN EFL

**Jumanova Sabrina Vaydullo qizi** – teacher

The department of practical disciplines of English language 2  
Uzbekistan State World Language University

**Abstract.** English has become as one of the most widely used languages in the world, with application in a variety of industries, including education. Particularly in Uzbekistan, English is considered as a foreign language, which means that it is only occasionally or in certain circumstances used in daily life. The rate of learning and using the English language is still low, given the problem. Learners need motivation to learn English well, and this motivation comes from within. As a result, the importance of motivation in the teaching and learning process cannot be overstated.

**Keywords:** *English as a Foreign Language (EFL), learning, motivation, acquisition.*

In the past, some studies claimed that in nations where learning English was considered as a foreign language, learners were motivated by external or instrumental factors. The outcome suggested that instrumental motivation predominated in the English language acquisition process. It means that such a purpose served as the basis for encouraging students to learn English in order to achieve high academic standing, secure employment, pass tests, and pursue vocations. On the other hand, in nations where English is a second language, learners are directly motivated to acquire the language because they have an internal desire to do so. Also, outside variables like the environment and media are crucial in encouraging students to learn English.

In today's world, English is regarded as a foreign language that is taught in schools from the primary grades to the university levels. English is used informally as a foreign language, which implies that it is not always employed in society or in the classroom for teaching and learning purposes (with the exception of international standard schools or English faculties), but rather as a language for studying specific field disciplines. Given the significance of English as a Foreign Language (EFL), a variety of internal and external factors, such as those mentioned above, undoubtedly affect students' enthusiasm in studying the language. Motivation is one of the important factors which is responsible to students' exhibitions in learning a language. In this term, it is English. Motivation is considered as the incentive or effort to do something. Motivation is a kind of desire to learn. To teach a foreign language in an academic context, learners must first have a desire to learn that language. There are several factors that influence foreign language learning. Furthermore, all other factors related to the acquisition of English as a foreign language (EFL) have a certain motive. By creating enough motivation, it is hoped that even individuals of minimal ability can achieve long-term goals and that a suitable curriculum and good teaching methods will suffice. In addition, high motivation can fill significant gaps in both language skills and academic conditions. Motivation is one of the most important factors in mastering a second language and is certainly tied to language success in the sense that it cannot happen without motivation. In short, motivation is used as a concept to explain the success or failure of a language learner. There are many advantages to knowing other languages but they are not absolutely necessary, and so motivation can play an important role in learning English as a foreign language. And many factors can influence this dynamic.

First, motivation is something that can increase a student's determination and interest in language learning. Working in a non-native language environment, but keeping in mind that our mission is to teach foreign languages, we see several important motivational goals in: Meeting academic requirements; Improving language proficiency- education level; Improves critical and creative thinking skills; Increases job opportunities and potential salary; Increases general understanding, etc.

Second, teachers must emphasize student motivation in order to be able to satisfy them. In order to attract learners' attention, it is necessary to pay attention to the definition of motivation.

Third, it refers to the student's effort and desire to achieve language learning goals, as well as a positive attitude towards language learning. It includes a range of goal-directed behaviors, such as expectations and enjoyment of tasks and experiences. It consists of three aspects:

a) Motivational intensity, that is, the amount of effort a person makes to learn a language.



b) Desire to learn the target language, related to the desire of EFL students to achieve a high level of proficiency in the target language.

c) Attitudes towards EFL learning: refers to the effects of L2 learning on L2 learners. Students' motivation in the educational setting results from their perceptions of the classroom, and sometimes from their interactions with teachers, peers, and others at school. [1] The nature of curriculum design and the teacher-student, student-student relationship play an important role in the extent and nature of motivation. Each student has a different level of motivation, as well as various personal and social factors that affect their motivation. The social cognitive model does not categorize students as motivated or unmotivated, but rather believes that students can be motivated in many ways and affected by many different factors and ways. [2].

The main factors, which play a central role in students' motivation, are their interest in learning or the degree to which they are motivated from within, the presence of external pressure and its effect on with learners. In addition, teacher materials and activities correspond to student interests and needs.

In recent years, it has played an important role in the higher education environment of students, where e-learning challenges traditional training and learning methods, while providing solutions. new for many problems, such as. “Online learning can be understood as an educational process that uses information and communication technology to create training activities, disseminate learning content, communicate between students and teachers, and serve students. management studies” [2]

The promotion of motivation to learn is one of the key principles for effective education [5]. Studies have shown that there is a direct relationship between student motivation and academic performance. The study suggests a number of strategies for teachers that can be very helpful in increasing the extrinsic motivation of language learners and creating a positive attitude towards language learning. Some of these include creating a friendly atmosphere in the classroom, providing students with a student-centered and less anxious classroom environment; Give students the opportunity to feel a sense of accomplishment. Also, encourage students to set their own short-term goals. Learning motivation represents that a student wants to participate in a training activity and learn from it [6].

### **Conclusion**

Motivation plays an important role in student success in foreign language learning, which directs behavior towards specific goals to achieve a particular environment or environment. Helps create motivation in the process of personal development. If an individual is motivated, he will have a task to fulfill and will achieve his personal goals.

### **REFERENCE**

1. Kamo P. Chilingaryan. “Motivation In Language Learning” August 2015. 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference on Social Sciences and Arts SGEM2015. Russia
2. Gardner R.C. Social Psychology and Second Language Learning: The role of Attitudes and Motivation. London: Edward Arnold, 1985
3. Oxford R.& Shearin J. “Language learning motivation: Expanding the theoretical framework”. Modern Language Journal, issue 78, 12-28, 1994.
4. Rafika Nurhidayah, “The role of motivation in second language acquisition” Jurnal Ilmiah STBA Vol.No2, June 2020, ISSN 0216-3381
5. Danin Cristiano, Ivena Karin. “The role of motivation in the English language learning”. 2019.



## INTERNET LUG‘ATCHILIGINING SHAKLLANISHI

**Matluba Turobova Raxmatullayevna**

O‘zbekiston Milliy universiteti

lingvistika: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

II-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek elektron leksikografiyasi shakllanishi va uning taraqqiyoti hamda bugungi kundagi zamonaviy internet lug‘atlarini yaratish masalalari haqida so‘z boradi. Xususan, kitobiy (an’anaviy) va elektron lug‘atlari o‘zaro qiyoslanadi, o‘xshash va farqli jihatlari keltiriladi. Insonlar o‘rtasida o‘zaro aloqa almashinuv uchun universal tilni yaratish prinsiplari bilan shug‘ullanuvchi interlingvistika fani shakllandi. Ijtimoiy hayotning hamma jabhalariga avtomatizatsiyaning kirib borishi natijasida lug‘atlarni elektron shaklda yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Aynan shu kabi ma’lumotlar maqolada izohlandi.

**Kalit so‘zlar:** elektron lug‘at, kitobiy lug‘at, maqola, internet lug‘atshunosligi, o‘zbek lug‘atshunosligi, mustaqillik, online lug‘at.

## INTERNET LUG‘ATCHILIGINING SHAKLLANISHI

O‘zbek lug‘atshunosligi o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega bo‘lib, dastlabki lug‘at namunasi Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asari hisoblanadi. O‘tgan davriy bosqichlarda ensiklopedik (qomusiy) va filologik (lingvistik) lug‘atlar yaratilib, takomillashtirilib borildi. Globallashuv jarayoni faqatgina insonlarning ijtimoiy hayoti va madaniyatiga emas, balki odamlar nutqining asosiy vositasi bo‘lgan tilga-da o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shuning uchun o‘zaro muloqot jarayonining yanada maqbul usullarini aniqlash uchun har xil leksikografik tadqiqotlar yanada rivojlantirib borilmoqda. Insonlar ortasida o‘zaro aloqa almashinuv uchun universal tilni yaratish prinsiplari bilan shug‘ullanuvchi interlingvistika fani shakllandi. Ijtimoiy hayotning hamma jabhalariga avtomatizatsiyaning kirib borishi natijasida lug‘atlarni elektron shaklda yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi.

L.I. Kolodnyajnyaya leksikografiyani an’anaviy hamda raqamli kabi ikkiga ajratadi. Tarjima jarayonida ham ikki yondashuv borligi ko‘rsatib o‘tiladi: 1) leksikosentrik (kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish); 2) slovarsentrik (mashina yordamida analiz qilish). Raqamli (elektron) leksikografiya 60-yillarda shakllangan bo‘lib, uning ilk ibtidosi sifatida Brown korpusi, 1978-yilda avtomatizatsiyaning tizim va tilni qayta ishlash uchun maxsus kodlangan zamonaviy ingliz tili Longman lug‘ati (Longman Dictionary of Contemporary English) kabi lug‘atlarni keltirishimiz mumkin.

Professor N. Abdurahmonova zamonaviy lug‘atlarni yaratish masalalari bo‘yicha quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Lug‘atlarning yaratilishida uch narsa hisobga olinishi kerak:

- lug‘atlarning yaratilishiga ko‘ra maqsad va vazifalari;
- lug‘atda tavsiflangan matnlar;
- foydalanuvchilarning kategoriyasi”<sup>1</sup>.

Bugungi kunda internet tarmoqlarining yanada taraqqiy etishi hamda uning tilga ta’siri natijasida korpus leksikografiyasi yoki kiberleksikografiya singari zamonaviy yo‘nalishlar yuzaga kelmoqda.

“Korpus leksikografiyasi – ma’lumotlarni saqlash, uzatish va analiz qilish kabi vazifa bajarishga yo‘naltirilgan kompyuterning muayyan fazasida ko‘p qo‘llaniladigan matn yoki akustik korpusi asosida tilni o‘rganish sohasi hisoblanadi”<sup>2</sup>.

Kompyuter texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan korpus leksikografiyasi tilni analiz qilish bilan cheklanmasdan, kompyuter vositasida matnni tahlil qilishning metod hamda texnologiyalarini o‘rganadi. Kiberleksikografiyada matn bilan ishlashda yoki lug‘at yartishda internetdan to‘liq foydalaniladi.

Ma’lumki, an’anaviy (kitobiy) lug‘atlar mavzusiga ko‘ra ensiklopedik va lingvistik kabi turlarga ajratiladi. Ular quyidagi tuzilishdan iborat:

1 Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021

2 Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Каким должен быть учебный словарь?// Русский язык за рубежом.- 2001. -№3. -С.46-50.





-Kirish qismi, lug‘atda berilgan maqolalar strukturasi bo‘yicha ma’lumot, foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasi;

-Berilgan birliklardan jamlangan so‘zlik: morfema, leksema, so‘zshakllar yoki so‘z birikmasi;

-Lug‘at maqolalarida o‘z izohiga ega bo‘lgan birlik;

-Indekslar;

-Adabiyotlar ro‘yxati;

-Shartli belgilar hamda alifbo.

Zamonaviy elektron lug‘atlarda bu kabi qismlarning barchasi mavjud, lekin ba’zi farqli jihatlari ham kuzatiladi. Tilshunos Z.Xolmanova kitobiy va elektron lug‘atlarni quyidagicha farqlaydi:

“1. Kitobiy lug‘atlar kartotekalar asosida tuziladi. Elektron lug‘atlar korpus (elektron kartoteka) asosida yaratiladi.

2. Kitobiy lug‘atlar qo‘lyozma holatda, kompyuter lug‘atlari elektron variantda tuziladi.

3. Kitobiy lug‘atlar qo‘lyozma holida tahrir qilinadi; elektron lug‘atlar nisbatan tayyor lingvistik baza asosida yaratiladi.

4. Kitobiy lug‘atlar bosma holida nashr etiladi; elektron lug‘atlarda lingvistik ta’minot dasturiy ta’minot bilan uyg‘unlashtiriladi.

5. Kitobiy lug‘atlar tuzilishi sahifalar ketma – ketligiga tayanadigan chiziqlik tamoyiliga bo‘ysunadi. Elektron lug‘atlar strukturasi gipertekst texnologiyasiga asoslangan bo‘ladi, bu esa foydalanuvchiga lug‘at maqolalarining ixtiyoriy qismiga tezkor murojaat qilish imkonini beradi”<sup>1</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021

2. Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Каким должен быть учебный словарь?// Русский язык за рубежом.- 2001. -№3. –С.46-50.

3. Маник С.А. Новый словарь общественно – политической терминологии и его. Место в современной лексикографии в эпохикиберлексикографии//Вестник МГОУ. Серия: Лингвистика 2015/№5. – С.33-34.

4. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. - Тошкент, 2002.

5. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. - Тошкент, 2007.

---

1 Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi.-Toshkent., 2019. –B. 95.



## O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING BA’ZI JIHATLARI

**Salayeva Navbaxor**

Xorazm viloyati pedagoglarga yangi metodikalarni o‘rgatish milliy markazi”Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”kafedrasida dosenti.

**Xudayberganova Sharofat**

Xorazm viloyati pedagoglarga yangi metodikalarni o‘rgatish milliy markazi”Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”kafedrasida o‘qituvchisi.

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quvchi –yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga oid ma’lumotlar yoritiladi. Asosiy e’tibor o‘quvchining kitob mutolaa qilishi madaniyati va kitobxonlikning mazmuniga qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qish madaniyati, kitobxonlik madaniyati, mutolaa madaniyati, axborot olish madaniyati, kitobxon o‘quvchi*

**Kirish.** O‘quvchi-yoshlarning kitob o‘qishi uning ham yozma ham og‘zaki nutqining, tafakkurining shakllanishida, takomilida o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘qish madaniyatini tarbiyalash ma’lum bir davr bilan chegaralangan hodisa bo‘lmasdan inson umri bo‘yi o‘rganadigan ma’naviy extiyojdir. O‘quvchilarni kitob va undan ratsional foydalanishga o‘rgatish hamda keng targ‘ib qilish jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchi - yoshlar tomonidan mutolaa qilish jarayoni shaxsni tarbiyalashda muhim o‘rin egallab, jamiyatda mutolaa jarayonlarini optimallashtirish yo‘llarini izlab topish, kitobxon psixologiyasi, o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini belgilash muhimdir. Kitobxonlik madaniyatini o‘quvchilarda shakllantirish, tarbiyalashning yo‘l-yo‘riqlari, tarbiyalash vositalarini ishlab chiqish, o‘qish madaniyatini tarbiyalash jarayonining samaradorlik darajasini belgilaydi.

Kitobxonlik masalasiga mamlakatimiz hayotida har doim ham muhim ijtimoiy masala sifatida qarab kelingan bo‘lsa-da, hozirgi kundagidek dolzarb ahamiyat kasb etmagan. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o‘z salohiyati, davlatning ravnaqi yo‘lida tinmay izlanib, yuksak ma’naviyatli, madaniyatli, ma’rifatli, intellektual yoshlarni tarbiyalash, kamol toptirishda uzluksiz ta’lim jarayoniga yangi ma’lumotlarni taqdim etadigan maskan bu-axborot resurs markazlari va kutubxonalardir.

Biz, bilamizki maorif sohasi aynan o‘quvchi –yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantiruvchi bosh omil sanaladi. Xususan bugungi kunda “o‘qish madaniyati”, “kitobxonlik madaniyati”, “mutolaa madaniyati” kabi atamalar zahirida “axborot olish madaniyati”ni ham o‘quvchilarda shakllantirish hamda “kitobxon o‘quvchi” termini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta ta’sir qiluvchi asosiy jihatlardan biri bu - o‘quvchi- yoshlar uchun kitoblarni chop qilish masalasi hisoblanadi. Shu sababli ham quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratish lozim deb qaraymiz:

-bolalar kitoblarining nashr etilishi, kutubxonalarning fondlarini nashrlar bilan ta’minlanganligini muntazam tahlil qilib borish;

-kitob o‘qilishi, kitoblarning o‘rtacha aylanishi va kitob bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlab borish;

-kutubxonalarning o‘quvchilarda o‘qish madaniyatini tarbiyalashdagi imkoniyatlarini asoslash;

-ota-onalarning o‘z farzandlari kitobxonligiga, bolalar kitobiga, mutolaa asiga munosabatlarini aniqlab borish;

-kutubxonachilik darslarining o‘qish madaniyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini asoslab borish.

Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda va amaliyotda bir qator hodisalar o‘qish madaniyati tushunchasi ostida yuritiladi. Jumladan, o‘qish madaniyati bolalarga badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish yo‘llarini, undan estetik zavq olishni o‘rgatadi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallardan o‘zini qiziqtirgan narsalarni qidirib topish, umuman, kitob va kutubxonadan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish o‘qish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Bugungi kunda “o‘qish madaniyati”, “kitobxonlik madaniyati”, “Muomala madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelinayotgan ijtimoiy



hodisa “axborot olish madaniyati”ning tarkibiy qismidir. Bizning fikrimizcha, bu jarayonni aynan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilari doirasida tadqiq etganda “o‘qish” terminini ishlatish maqsadga muvofiqdir. O‘qish madaniyatini tarbiyalash ta’lim jarayonida amalga oshadi va ushbu jarayonni tadqiqotchi A.Umarov quyidagicha izohlaydi... “...maorif tizimi fuqarolarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning asosiy ijro institutlaridan biri vazifasini bajaradi. Aynan maorif tizimida yoshlarda kitob va kitobxonlikka qiziqishni shakllantirish, takomillashtirish masalalari professional pedagogik nuqtai nazardan amalga oshirib kelinadi”<sup>1</sup>. Demak, ta’lim tizimi o‘qish madaniyatini shakllantirishning asosiy ijro institutlaridan biri vazifasini o‘taydi. Egallagan bilimlar o‘quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfdan o‘tiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari o‘qishda, aniqrog‘i, kutubxonalarda mustaqil tarzda shug‘ullanish orqali ham egallanadi. Binobarin, maktabdagi o‘quv fanlarining o‘rganilishi, darslarining o‘zlashtirilishi sinfdan tashqari o‘qishga bog‘liq.

Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy qismini kutubxonalar o‘z zimmasiga olgan bo‘lib, ularsiz ta’lim va tarbiya to‘liq bo‘lmaydi. Shu bois kutubxonalar ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ijtimoiy masalalarni hal etishga ko‘maklashadi.

Biroq ochiq tan olish kerakki, respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimida ham, kutubxonalar faoliyatida ham o‘quvchilarda o‘qish madaniyatini tarbiyalashni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan.

Shaxsda o‘qish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. O‘qish madaniyatini tarbiyalash ma’lum bir davr bilan chegaralanadigan hodisa bo‘lmasdan, inson umr bo‘yi o‘rganadigan ma’naviy ehtiyoj bo‘lib, u doimiy va faol xarakatlantiruvchi manbalar ta’sirida shakllanadi.

Mana shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda o‘qish madaniyatini tarbiyalashning manbalari, shakllanish bo‘lajaklari o‘rganiladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish madaniyatini shakllantirishning muhim ahamiyat kasb etadigan bo‘g‘inlari oila – maktabgacha tarbiya muassasasi – maktab kutubxonalardir.

Zero, o‘qish ya’ni mutolaa bola hayotiga mustahkam kirib borishi uchun bolalikning ilk pallasidan tayyorgarlik ko‘rish zarur: u birinchi so‘zni mustaqil ravishda o‘qishdan oldin, – onasi, otasi, buvisi, bog‘cha murabbiyasining mutolasini tinglashi, ya’ni badiiy obrazlar go‘zalligini his qilishi kerak.

Hech bir zavg mutolaa zavqiga teng emas. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi<sup>2</sup> farmoyishi, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur farmoyish kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko‘targanligi bilan izohlanadi. Farmoyishning ibratli jihati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlarini nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. O‘qish madaniyatini inson bir umr bo‘yi o‘rganadi. Lekin uning asosiy qoidalarini inson yoshlikdan, bolalikda kitobni ilk taniy boshlagan davrdan o‘rganib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilaning bola tarbiyasidagi, uning shaxs sifatida shakllanishidagi ahamiyati xususida bir qator risolalar yaratilgan bo‘lib, ularda shaxsning tarbiyaviy jarayonida kitobning, mutolaaning ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

O‘qish madaniyatini tarbiyalashda oilaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘z farzandlarida barcha axborot manbaalariga bo‘lgan qiziqishni, jumladan kitob o‘qishga, kutubxonalarga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish.

2. Mavzu jihatdan rang-barang, turli-tuman manbalarga boy bo‘lgan shaxsiy oilaviy kutubxona tashkil etish.

3. Oila a’zolarining yoshiga, qiziqishlariga, intellektual salohiyatiga mos adabiyotni tanlab o‘qishni o‘rgatish.

1 Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. - T.: Fan, 2004. - B. 78-79

2 Mirziyoev. Sh. M. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi. T: 2017 yil 12 yanvar



4. O‘z farzandalarini kitoblardan foydalanish qoidalari bilan tanishtirib borish va bu orqali bolalar o‘qishini to‘g‘ri tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlarini taqsimlash masalalarida faolliklarini oshirish.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik holatlari va ruhiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator izlanishlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatining psixologik tahlili, ta‘limning psixologik asoslarini bayon qilish, o‘quvchilarning psixik rivojlanishini yoritish kabi bir qator hodisalar tadqiq etilgan. Jumladan, G‘.B.Shoumarov kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘quv faoliyatining psixologik asoslarini, E.G‘oziyev kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilish jarayonlari xususiyatlarini, M. G.Davletshin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarishda kitob mutoolasining roli va o‘rni beqiyosligini o‘z tadqiqotlarida asoslab bergan.

V.Karimovaning pedagogik-psixologiyaga doir ilmiy izlanishlarida kitob o‘qish o‘quvchining asosiy va yetakchi faoliyati sifatida tizimli, maqsadli va rejali amalga ishirilib borilsa, uning mantiqiy, mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashiga zamin yaratiladi deb ta‘kidlaydi. Kitobxon o‘quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta‘sir o‘tkazish shaxsning yosh va o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olishga tayanadi, bolalarning kitob o‘qishiga ularning yosh xususiyatlari ta‘sir etishini o‘rganadi, ya‘ni qaysi yoshda qanday kitoblarni o‘qish va tushunish mumkinligini aniqlaydi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. -T.: Fan, 2004. -B. 78-79
2. Mirziyoev. Sh.M “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi. T: 2017 yil 12 yanvar
3. E.G‘.G‘oziyev.”Psixologiya fanini o‘qitish metodikasi”.T.:Universitet.2006.
4. F.Xaydarov.N.Xalilova .Psixologiya fanini o‘qitish metodikasi.T.:2008.
5. V.M.Karimova. Auditoriyada baxs – munozara darslarini tashkil etishning psixologik texnikasi.T.: Yangi avlod.2011.



CHIZMA GEOMETRIYA FANIDA TALABALR MUSTAQIL TA‘LIMI MAZMUNI VA TASHKIL ETISH USULLARI

**Tashimov Nurlan Erpolatovich**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti  
Telefon: +998 97 480 25 62  
nurlan\_tashimov1979@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada chizma geometriya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta‘limining mazmuni va tashkil etish usullari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Chizma geometriya, mustaqil ta‘lim, talabalar, bilish faoliyati, darajali topshiriqlar, vosita, fazoviy tasavvur, tasvir, ortogonal.

**Аннотация.** В данной статье освещены содержание и методы организации самостоятельного обучения студентов в процессе обучения предмету начертательная геометрия.

**Ключевые слова.** Начертательная геометрия, самостоятельное обучение, учащиеся, познавательная деятельность, уровневые задания, средство, пространственное воображение, изображение, ортогональное.

**Annotation.** This article highlights the content and methods of organizing independent learning of students in the process of teaching the subject descriptive geometry.

**Keywords.** Descriptive geometry, independent learning, students, cognitive activity, level tasks, means, spatial imagination, image, orthogonal.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta‘limga quyidagicha ta‘rif berilgan: mustaqil ta‘lim-o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.<sup>1</sup>

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta‘lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimlilik hamda o‘quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog‘liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinib, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o‘tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o‘quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimlilik, topshiriq hamda vazifalarning ko‘p qirraligi, o‘zaro bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta‘lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e‘tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ‘ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishni ta‘minlash maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi tayyorlash o‘quv rejasiga kiritilgan ta‘lim dasturlarida talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishlari nazarda tutilgan. Barcha ta‘lim yo‘nalishidagi bakalavr-o‘qituvchi tayyorlash o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilangan. Shundan auditoriya o‘quv ishlari hajmi haftasiga 28 soat, qolgan qismi, ya‘ni 26 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta‘lim olishga qaratilgan.

Muhandislik grafikasi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr-o‘qituvchilar tayyorlash uchun belgilangan o‘quv yuklamasining umumiy hajmi 5400 soatni, shundan mustaqil ta‘lim soatlari 3240 soatni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bakalavr darajasidagi kadrlarni tayyorlash uchun o‘quv rejasida belgilangan yuklamaning 60% hajmi mustaqil ta‘lim olishga qaratilgan. Mustaqil ta‘lim olishda talabalar fanlararo bog‘lanishni hisobga olib o‘quv adabiyotlarini tanlaydi, ulardan kerakli ma‘lumotlarni yozib oladi, ularni tahlil qilib, mustaqil ishning mazmunini o‘rganadi va shu ish bo‘yicha tushunchaga ega bo‘ladi. Ushbu holatni quyidagi 1.1-jadvalda ham ko‘rish mumkin.

<sup>1</sup> Н.А.Муслимов, О.А.Қўйсинов. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш назарияси ва методикаси. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. 2009.21 бет.



**Muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr-o‘qituvchilar tayyorlash o‘quv rejasida ajratilgan soatlar miqdori**

O‘quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlari	Talabning o‘quv yuklamasi (soatlarda)		
	Umumiy yuklamaning hajmi	Auditoriya soatlari	Mustaqil ta’lim
Majburiy fanlar	3840	1800	2040
Tanlov fanlar	720	360	360
Malaka amaliyoti	840		
Jami	5400	2160	2400

Berilgan grafik masalaning bir qismini auditoriyadan tashqarida (kutubxona va boshqa) ham mustaqil ishlashga ruxsat etiladi. Mustaqil ish dasturini belgilashda o‘tilgan mavzularning takrorlanishiga yo‘l qo‘ilmagan holda talaba uchun ilmiy, amaliy jihatdan muhim, o‘rgangan hamda o‘rganayotgan bilimlaridan ijodiy foydalanish mumkin bo‘lgan savollar va masalalar qo‘yiladi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi to‘rtta turi qayd etib o‘tiladi: namunalar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlar, rekonstruktiv-variantiv, evristik (qisman ijodiy), ijodiy tadqiqot xarakterdagi mustaqil ishlar. Ammo ularda yuqorida qayd etilgan mustaqil ishlar natijasini tekshirib ko‘rish, tahlil etish, sintez qilish, baholash, xulosa chiqarish haqida so‘z yuritilmaydi.

Uni mazmunan tarkib toptirish bilan birga talabalarning o‘z ishlarini o‘zlari tekshirishlari hamda nazorat qilishlari mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda yaxshi samara berishi aniqlandi. Ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

-namunalar bo‘yicha mustaqil ishlarda tipik vazifalar amalga oshiriladi, ya’ni turli mashqlar, amaliy ishlar namunalar asosida bajariladi. Namunalar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin talabalar ijodiy faolligini rivojlantirmaydi;

-rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi;

-evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan muammolar hal qilinadi;

-ijodiy tadqiqot ishlarida talaba masalani hal qilish yo‘llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Bunday ishlar qatoriga tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, modellar, maketlar bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi. Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi.

Chizma geometriyani o‘rganishda fazoviy tasavvurning roli katta bo‘lib u asosiy parametrlardan biri hisoblanadi. Gap shundaki chizma geometriyadagi tasvirlarning xammasi shartli tasvirlardir. Chizma geometriyada ana shu shartli tasvirlar asosida fazodagi xajmli geometrik shakllarning nafaqat o‘zini balki ularning orasidagi pozitsiyaviy va metrik munosabatlar aniqlanadi. Fanning nozik tomoni ham ana shundadir. Talabalar shartli tekis tasvirlar bo‘yicha fazoviy shaklni ko‘z oldiga keltirish va ularning orasidagi pozitsiyaviy va metrik munosabatlarni aniqlashi zarur. Shuning uchun fanni o‘zlashtirishda auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda mustaqil ta’lim mazmuni va uni tashkil etish katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh.K. Murodov "Chizma geometriya". -T,: "Iqtisod-moliya". 2006-y.
2. Qiyom Nazarov "Bilish falsafasi", -T,: "Universitet". 2005-y.
3. N.Shermuxeimedova "Falsafa va fan metodologiyasi", Toshkent 2005.
4. N.Tashimov "Chizma geometriyani o‘qitishda talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish usullari" Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar yordamida o‘qitish istiqbollari. Respublika ilmiy-texnik anjumani. 25-iyun 2021-yil. Termiz. 36-38 betlar.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2023

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000